

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI
KINO, TELEVIDENIE VA RADIO SAN'ATI FAKULTETI
“SAN'ATSHUNOSLIK VA MADNIYATSHUNOSLIK” KAFEDRASI**

“Baxt manzili” (*Muhabbat*)
kinossenariy

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: 5150200-San'atshunoslik
(Sahna va ekran san'ati dramaturgiyasi)
ta'lim yo'nalishi 4 kurs talabasi
Abduazizova Aziza Baxodir qizi

Kurs raxbari:
“San'atshunoslik va madaniyatshunoslik”
kafedrasi dotsenti, O'zbekistonda xizmat
ko'rsatgan jurnalist, kinodramaturg
E.A'zamov

Ilmiy rahbar:
“San'atshunoslik va madaniyatshunoslik”
kafedrasi katta o'qituvchisi
F.M.Abduvohidov

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o'tdi.
_____ sonli bayonnomasi «_____» _____ 2016 yil

TOSHKENT – 2016 y

MUNDARIJA

1. Asar tahlili..... 3 bet
2. Asar matni.....10 bet
3. Foydalanilganadabiyotlarro'yxati.....54 bet

Malakaviy bitiruv ishining tahlili

Kirish

Inson dunyoga kelar ekan, uning yagona maqsadi baxtli bo'lmoqlik hisoblanadi. Shu bois ham baxtga intilib yashaydi. Yashashdan oliy maqsadi aynan o'sha baxt manzilini topish uni his qilishdir. Biroq, uni osonlikcha qo'lga kiritib bo'lmaydi. Unga erishish yo'lida kishi boshiga xatto xayoliga kelmagan qiyinchiliklar tushishi, hayotning kutilmagan ayovsiz zarbalariga uchrashi mumkin. Bunday vaziyatlarda esa har birimiz o'zimizda sabr bardosh va kuchli iroda topa bilmog'imiz joiz.

Ma'lumki, erishiladigan, qo'lga kiritiladigan yutuqlarning bosh omili maqsadga bog'liq. To'g'ri tanlangan maqsad, to'g'ri yo'lga boshlaydi. Kishiga baxt keltiradi.

Inson eng avvalo, aniq maqsadlar sari qadam tashlashi darkor. Ana shundagina baxtga erishadi.

Hayot faqat quvonch va shodliklardan iborat emas, uning qorong'u lahzalari bor. Bunday lahzalarda dilimizdagi yorug'likka bo'lgan ishonch hech so'nmay sodiq hamroh bo'la oladi. Taqdirning qanday og'ir sinovlari, zarbalari kelmasin biz unga ko'krak kerib qabul qilishimiz kerak. Bu esa aynan o'z qo'limizda. Shu bois ham baxt va muhabbat mavzusini tanladim.

Mavzuning dolzarbligi

Asarning qay darajada dolzarbligini uning g'oyasi belgilab beradi. Asardagi bosh g'oya inson o'zi uchun o'zi baxt yaratishi. Taqdirning turli zarbalariga munosib javob qaytara olgan kishi baxtga albatta erishishi haqida. Inson o'z xatolarini vaqtida bartaraf etsa bu uning katta yutug'i sanaladi. Barcha birdek baxtli yashashga haqli, muhimi har qanday vaziyatda aslida kim ekanligimizni, o'zligimizni unutmaslik. Atrofimizda yaqinlarimizning borligini o'zi ham katta baxt.

Asarning mavzusi baxtga intilish haqida. Har kim baxtni turlicha his qiladi. Kimdir oilasidan, kimdir kasbidan yana kimdir esa do'stlari davrasidan baxt izlaydi. Tanlangan mavzu bugunning qaynoq barchaga birdek qiziq bo'lgan yosh sportchi yigit hayoti haqida. Asarda oila, do'stlar, sport va albatta muhabbat mavzusini ham yoritishga harakat qilingan.

Asar voqealari jarayonida inson ko'nglidagi muhabbat, nafrat, orzu va armon kabi turli tuyg'ular namoyon bo'lishini guvohi bo'lamiz. Asarni yozish jarayonida sportchilar hayotini o'rganishga to'g'ri keldi. Bunda sportchilar hayoti yoritilgan kino film, seriyallarni ko'rib chiqdim. Biroq ularni orzu va armonlarini mukammalroq yoritishga harakat qildim.

Mavzuni o'rganganlik darajasi

Ushbu asarni yozishdan avval aynan shu mavzuda asr yozilganmi yoki yo'qmi o'ylab ko'rdim. Yozilgan bo'lsa undagi g'oya nima va qaysi jihatlarga e'tibor berilgan. Shu maqsadda ushbu mavzuga yaqin bo'lgan mavzulardagi ijod mahsullarini o'rganishga qaror qildim. Baxtga intilish haqida ko'plab asarlarni uchratdim. Sportchilar hayoti yoritilgan kinolarni ham ko'rib chiqdim. O'rganish davomida shu narsani uchratdim, Rutsam Sadiev rejjisyorligi ostida yaratilgan "Dada" filmida ham sportchi yigit bosh qahramon sifatida namoyon bo'ladi. Unda ham sportchining kasbi nuqtayi nazaridan emas, balki uning hayoti ko'proq yoritilganligi bilan o'xshab ketishiga guvoh bo'ldim. Ammo qahramonlar taqdiri va hayoti, turmush tarzi bir biridan keskin farq qiladi.

Maqsad va vazifalari

Qo'lga qalam tutgan har bir ijodkor, biror asar yaratar ekan, albatta bu asar orqali uning aytadigan so'zi bo'ladi. Ijodkor o'z oldiga biror maqsad va vazifa qo'yadi va o'sha maqsad sari intiladi.

Asardan ko'zlangan asosiy maqsad, doyimiy o'lmas mavzu sanalgan muhabbatni o'zgacha ko'rinishda talqin etish. Muhabbat deganda faqatgina qiz va

yigit o'rtasidagi qaynoq tuyg'ular tushunilmaydi. Bu juda keng ma'noli, keng qamrovli so'zdir. Kishi atrofida gilarining muhabbatiga erishdimi demak u chinakam baxt sohibi hisoblanadi. Asardan ko'zlangan asosiy maqsad, har qanday sinovlarga sobit tura olish, atrofida gidi sodiq do'tslar mehriga erishish, sevimli kasbida yutuqlarni qo'lga kiritishning o'zidan ham baxt topa bilishni o'rganishdir. Kimdir bu narsalarga erishishda xech qanday yo'qotishlarga uchramaydi, yana kimdir taqdirning turli sinovlarini boshidan kechiradi. Farq shundaki irodali kishi xar qanday vazuyatda ham oldinga qadam tashlay oladi, irodasizlar esa maqsadga etolmay yarim yo'lda qolib ketadilar.

Asar qahramoni Yodgor obrozi orqali turli savollarga echim topiladi. Hayotda, yon atrofimizda sodir bo'layotgan voqealar uning ham hayotida uchraydi.

Bir so'z bilan aytganda asardan ko'zlangan asosiy maqsad- inson baxtni o'zi yaratishi, har qanday vaziyatda ham qahramonimiz singari olg'a boorish kerakligidir. Shu bilan birga asar qahramonlari yutuqlari va kamchiliklaridan tegishli hulosalar chiqarishga qaratilgan.

Asarning kompositsiyasi

Ekspozitsiya – Xadicha opa hayotida Yodgorning paydo bo'lishi.

Voqealar rivoji – sport zaldadi Yodgor va Shuxrat aka o'rtasidagi tortishuv.

Tugun – Yodgorga pul zarur bo'lib qolishi

Kulminatsiya – Yodgor onasidan ayrilishi

Yechim – tushkunlikka tushgan Yodgor do'yslari ko'magida yana sportga qaytishi va champion bo'lishi.

Asarning qisqacha mazmuni

Asar voqealari 1989 yilda ro'y bergan hodisa bilan boshlanadi. Ya'ni farzand ko'rish itsagida yurgan Odil va Xadichaga Yodgor uchraydi. Tunda uyga qaytayotgan Odil bezorilarga uchrab og'ir jaroxatlanadi. O'sha tunda Yodgorni topib olib uyga keladi va Xadichaga beradi va o'zi olamdan ko'z yumadi.

Qishloqdagi turli hil gap so'zlarga chidolmagan Xadicha shaxarga keladi va farrosh bo'lib ishlaydi. Yodgor esa mana shu muhit tasirida sportga qiziqishi ortib voyaga etadi.

Do'tsi Dilshodni himoya qilish va qaysidir ma'noda uning uchu kurashish uchun noqonuniy jangler o'tkaziladigan tashlandiq zavodga etib boradi. Bundan xabar topgan topgan murabbiy uni sport zalidan haydab yuboradi. Uni janglarini kuzatgan boshqa bir sport zal egasi Yodgorga ish taklif qiladi va chempoin bo'lishiga va'da beradi.

O'sha sport zalida o'z faoliyatini boshlaydi, bu erda Zafarni uchratadi va ta'bi xira tortadi. Ular ko'cha jangida bellashgan edilar.

Yodgorni bolalikdagi do'tsi Mohina uni uyiga borib, onasiga uy ishlarida yordamlashadi. Bu esa, Yodgorga yoqmaydi boshqa kelmasligin so'rab Mohinani ketkazib yuboradi.

Zafar va Mohina tasodifan tanishib qoladilar va yaqindan do'tslashadilar. Yodgorni Zafar bilan tanishtirish maqsadida Mohina ularni uchrashtiradi, ammo bu uchrashuv Yodgorga yoqmaydi.

Yodgor bor kuchini mashg'ulotlarga sarflaydi va chempionlik uchun kurash olib borib g'olib bo'ladi, ammo o'sha kuni Xadicha opa kasalxonaga tushib qoladi. Bu voqeani eshitgan Yodgorga chempionlik ham tatimaydi. Tezda kasalxonaga etib keladi. Onasini axvoli og'irligini aytishadi. Operatsiya va dori darmonlar uchun pul kerak edi. Yodgorning haqiqiy ota onasi ham shu erda edilar, ammo Yodgor ularni ko'rishni ham, bilishni ham itsamay haydab yuboradi. Pul toppish maqsadida murabbiysi Jamol akadan yordam so'raydi, u pul berolmasligini ammo boshqa yo'l bilan ya'ni ko'cha janglari uyushtirib berishi mumkunligini aytadi. Yodgor bunga rozi bo'ladi.

Mohina ham ota-onasidan pul so'raydi, uydagilari Yodgor bilan munosabatlariga qarshilik qilishadi. Mohina uydan chiqib ketadi va Zafarning yoniga borib vaziyatni tushuntiradi. Zafar unga dorilar uchun kerakli pulni beradi va kasalxonaga tezda olib borishini tayinlaydi, o'zi esa Yodgorni topish maqsadida

tashlandiq zavodga boradi. U erda Yodgorni topadi va tezlik bilan olib ketishga urinadi. ular birga chiqishadi va shu payt atrofda bir necha militsiya hodimlar paydo bo'lishadi. Bundan xabari bor Zafar Yodgorga ma'noli qaraydi. Ular birga kasalxonaga etib etib kelishadi ammo vaqt kech bo'lgandi. Yodgor bu yo'qotishdan og'ir tushkunlikka tushib qoladi. Oradan kunlar o'tadi Zafar Yodgorni uyiga boradi va uni umidsizlikka tushmasligini , sportga qaytishi kerakligini aytadi.

Yodgor Shuxrat akaning zaliga mashg'ulot uchun boradi va yana katta jang uchun tayyorgarlik ko'radi. Mohina, Dilshod, Zafar barchalari Yodgorning yonida unga madad bo'ladilar. Va nixoyat ular kutgan jang kuni etib keladi va Yodgor g'olib chiqadi.

Yodgor va do'stlari birgalikda Yodgorning qishloqdagi uyiga boradilar. Yodgorga barcha xavas bilan qarab qoladi.

Asar yakuniga kelib qaxramonimiz yolg'iz qolmagani, do'stlari, ustozlari va yutuqlariga quvonadigan xalqimiz u bilan birga ekanligi namoyon bo'ladi.

(Quyida bayon qilingan voqealarga asos bo'luvchi kichik voqealar asarni o'qish jarayonida ma'lum bo'ladi)

Asar qaxramonlariga xarakteritsika

Asar qaxramonlari sakkiz kishini tashkil etadi. Ularning har biri xarakter jixatdan takrorlanmas. Qaxramonlar asosan yoshlar. Xar bir personajning o'ziga xos tili bo'lib ular induviduallashtirilgan.

Turli xarakterga ega bog'lgan qaxramonlar, o'zining nutqi va albatta xatti xarakatlari orqali fe'l atvorining aslida qanday ekanini namoyon qiladi.

Asar voqealarini kuzatib borilsa ijobiy qaxramonlar ko'proq uchrashini guvohi bo'lamiz. Salbiy qaxramonlar esa deyarli yo'q.

Asarda bosh qaxramon sifatida Yodgor obrozi gavdalanadi. U 23 yoshlarda. Eng yaqin insoni onasi. Fe'lida biroz qo'pollik bor, ammo bu o'zini tashqi ta'sirdan himoyalash usuli. Aslida ta'sirchan va ko'ngli toza shu bilan bir qatorda

irodali inson. Maqsadi sari olg'a boradi bu sifat esa tomoshabinlar uchun o'rnak bo'la oladi.

Xadicha opa – Yodgorning onasi. Mexnatsevar, sodda va hokisor ayol. Farzandi uchun yashagan, uning baxtu iqbolini ko'rishni orzu qiladigan ona.

Mohina – Yodgorning bolalikdagi do'tsi. Juda go'zal, sho'x-shaddod va aqilli qiz. Xar qanday vaziyatda ham u Yodgorni yolg'iz tashlab qo'ymaydi.

Dilshod – Yodgorning do'tsi. Biroz sodda ammo yaxshi yigit. Xech bir gapni ko'ngliga yaqin olmaydi, kechirimli.

Zafar – sportchi yigit. Biroz shartaki. Asar boshida uni Yodgorning raqibi sifatida ko'ramiz ammo keyin u Yodgorning yaqin do'yslari qatoriga kiradi.

Shuxrat aka – murabbiy. Mehribon inson, kasbiga sadoqatli. Fe'li og'ir bosiq.

Jamol aka – murabbiy. U asosan pul toppish maqsadida sportchilardan foydalanadi. Uni o'z kasbini sevadi va sadoqatli deymaymiz. Foydasini o'ylab ish ko'radigan inson.

Asar voqealari turli konfliktlar asosiga quriladi. Konfliktlar esa asar qaxramonlarining turlicha xarakterlari to'qnashuvlari asosida yuzaga keladi.

Asarda asosiy qaxramonlardan tashqari ham boshqa qaxramonlar ishtiroki mavjud.

Yo'lda Odil akaga uchragan bezorilar shular jumlasidandir. Ularning xatosi tufayli Odil hayotdan ko'z yumadi. Xadicha yolg'iz qolib Yodgorni qiyinchilikda viyaga etkazadi.

Asarda uchraydigan voqealar o'quvchi va tomoshabinda turlicha tasavvur uyg'otadi. Turli xarakterdagi insonlar mavjudligi, tomoshabin film qaxramonlaridan qaysidur ma'noda o'rnak olishi shu kabi asarlar yaratishga sabab bo'laveradi. Ulardan tegishli hulosalar chiqarish xar kimning o'ziga xavola.

Ishning tuzilishi

Ushbu malakaviy bitiruv ishi 3 qisimdan iborat.

❖ Asarning tahlili

- ❖ Asrning to'liq shakli
- ❖ Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Xulosa

Xulosa o'rnida yana shuni ta'kidlash joizki, erishiladigan , qo'lga kiritiladigan yutuqlarning bosh omili maqsadga bog'liq. To'g'ri tanlangan maqsad, to'g'ri yo'lga boshlaydi. Kishiga baxt keltiradi.

Inson eng avvalo, aniq maqsadlar sari qadam tashlashi darkor. Ana shundagina baxtga erishadi.

Yuksak ma'naviyatimizni qadrlash va uni kelajak avlodga etkazish har birimizning burchimiz. Oila esa ana shunday maskan. Biz uchun yor do'stlarimiz, xalqimiz katta oila. Bu borada xar bir yurtdoshlarimizdan tiniq fikr, mutsaxkam va sog'lom g'oyalar talab qilinadi. Biz ham ya'ni san'at ahli, o'z sahamizdan kelib chiqqan holda milliy madaniyatimiz va bebaxo qadriyatlarimizni soflicha zamondoshlarimizga qolaversa kelajak avlodga etkazishimiz lozim. Yaratayotgan asarlarimiz, undagi obrozlar orqali kishilar qalbiga kirib boruvchi unda abadiy muxrlanuvchi ma'naviy boylik tushunchasi urug'ini sepishimiz kerak.

Asar qaxramoni Yodgor singari yurtimizga nafi tegadigan yoshlar jamiyatimizda ko'paysin. Uning yutuqlari tomoshabinlarimizga o'rnak bo'lsin. Nazarimda do'stlik va sadoqat tushunchalari qadri xech vaqt kamaymaydi.

Eng avvalo yoshlar ko'ngliga ma'naviyat, tarbiya, qadriyatlarni olib kirish san'at ahli va biz yosh ijodkorlardan yaxshi asarlar yaratish birinchi galdagi talab bo'lib qoladi.

Men ham aynan shu mas'uliyatni his etgan holda bakalavr bosqichidan o'tish jarayonida dramaturgiya sirlarini puxta egallashga, utsozlarim bergan ta'lim va saboqlarga quloq tutishga xarakat qildim. To'rt yillik ta'lim davomida ushbu asarni yaratishga muvaffaq bo'ldim.

Abduazizova Aziza

“Baxt manzili”

(Muhabbat)

(badiiy film adabiy senariysi)

Toshkent – 2016

“Baxt manzili”

(badiiy film adabiy senariysi)

Ishonch bo'lsa tog' harakatga keladi!

Epizod 1

Yodgorning kelishi.

1989 yil. Farg'ona viloyatining Bag'dod tumani. Tuman markazi. Keng yo'l, yo'ldan mashinalar o'tmoqda. Yo'l chetidagi bino ostida taksafon bor. Taksafon ichida Xadicha opa turmush o'rtog'i Odil aka bilan gaplashmoqda.

Xadicha opa: (ko'zlari kattalashib) Shunday deng, (birdan kulib)extiyot bo'lingda, qo'rqib ketmadingizmih (To'xtab) yaxshiman, qo'shnilarimiz bor-ku, ko'pam havotirlanmang. Kecha Sodiqjon kelgandi, salom aytdi. Mashinasida Nasibaxonlarnikiga yuk olib kelibdi, shoshib turgan ekan. Birrov kirib ketdi. Dadasi (sekingina) doktorlar nima deyishyapti? (ro'molini to'g'rilab)ertaga javobi chiqadi . Xo'p, o'zingizni extiyot qiling, xo'p. Sizni yaxshi ko'raman. (Ko'zlari yoshlanadi)

Xadicha opa go'shakni qo' yadi. Ro'molini pastroq tushirib peshonasini yopadi. Taksafondan chiqib yo'l bo'ylab keta boshlaydi.

Epizod 2

Poytaxt. Kichik bino yonida joylashgan taksafon butkasi. Butka ichida Odil aka trubkani ushlab turibdi. U butka ichida turgancha nimalarnidir o'ylamoqda. Sekingina trubkani qo'yadi va butkadan chiqib tor yo'l bo'ylab keta boshlaydi.

Epizod 3

Qishloq hali asfalt yotqizilmagan yo'l. Yo'lning bir tomonida devorlari bir-biriga tutashib ketgan hovlili uylar qator bo'lib joylashgan. Bir tomonidan zovur o'tgan. Yo'lda kimdir dalaga ketyapti, kimdir chelakda suv olib kirib ketyapti, dalaga mol xaydab ketishyapti, bir-necha xotinlar suxbatlashib turishibdi, yana kimlardir boshqa ishlar bilan ketishmoqda. Xadicha opa yo'l bo'ylab ketmoqda. Uylardan

birining yonida uch yoshlardagi bolakay mashina o'chinchiqchani o'ynamoqda. Xadicha opa yurishdan to'xtaydi, bolakayga bir-muddat qarab turadi. Bolakay Xadicha opaga qarab jilmayadi. Xadicha opa ham jilmayadi va yurishda davom etadi. Ayollar bilan salomlashib o'tib ketadi.

Epizod 4

Poytaxt. Shahar shifoxonalaridan biri. Xona. Doktor o'z stoli yonida turgancha qog'ozlarni ko'zdan kechirmoqda. Uning yonida Odil aka turibdi.

Odil aka: (xursand holda) demak, biz farzand ko'rsak bo'ladi?!

Doktor: (jilmayib) ha.

Odil aka: (hayojonlanib) adashmayapsizmi?

Doktor: nega adashar ekanmiz, (qo'lidagi varoqlarni ko'rsatib) analizlar natijasi shu.

Odil aka: raxmat, raxmat.

Odil aka xursand holda chiqib ketadi.

Epizod 5

Tun. qishloq chetrog'idan o'tgan katta yo'l. Yo'l bo'ylab onda-sonda mashinalar o'tyapdi. Mashinalardan biri yo'l bo'ylab yeldek uchib boryapdi. Mashina ichida orqa o'rindiqda Odil aka o'tiribdi. Miyig'ida jilmayib oynadan tashqariga qarab qo'yadi.

Odil aka: shu yerda to'xtavering, uyog'iga o'zim kirib ketaman.

Haydovchi: agar hoxlasangiz ichkariga tashlab qo'yaman.

Odil aka: yo'q, sizga qiyin bo'lmasin. Dala bo'ylab to'g'ri kesib chiqilsa uyimga chiqiladi.

Mashina chetda to'xtaydi. Odil aka haydovchiga "raxmat" deya tushadi. Mashina ketadi. Odil aka yarim tunda dala ichiga kirib ketadi.

Epizod 6

Tun. Dala o'rtasidan o'tgan yo'l. Yo'l chetida tanasiga baquvvat bo'lgan uch-to'rtta tollar bor. Tol ostida kichikroq maydon bo'lib bu joyda dehqonlar hordiq

chiqaradi. Tol ostida ikkita mashina turibdi. Mashina oldida o'ttiz yoshlardagi to'tr nafar kishi o'zaro suxbatlashishmoqda.

Kishi1: sinchalak degan qush agar osmon tushib ketsa ko'tarib qolaman deb oyoqlarini ko'tarib uxlarkan.

Kishi2: yo'g'-e, xo'roz men qichqirmasam tong otmaydi, degan hayolda yasharkan.

Kishi1: (jahl bilan) agar aytgan odaming kelmasa...

Kishi2: (gapini bo'lib) mana shu yer qabristonim bo'ladi. Shunday demoqchimisan.

Kishi1: aqlli ekansan.

Uzoqdan Odil akaning sharpasi ko'rinadi.

Kishi1: (sergak tortib) aqlli menimcha odaming kelyapti, qarachi o'shamikan.

Kishi2: (sharpa tomonga qarab) o'sha bo'lsa kerak.

Kishi1: bo'lsa kerak?

Kishi2: jo'natmoqchi bo'lgan odamni tushimda ko'ribmanmi.

Odil aka moshina chiroqlarini ko'rib yurishdan to'xtaydi. Bir-muddat ular tomonga qarab turadi-da, asta yurishda davom etadi. Kishilarning barchasi ular tomon kelayotgan Odil akaga qarashadi. Odil aka ularning nigohini ko'rib boshqa tomonga qaraydi va kishilarni yonidan o'tib keta boshlaydi. Kishilar bir-birlariga qarashadi.

Kishi2: to'xta.

Yurishdan to'xtaydi va asta ular tomonga qaraydi.

Kishi2: (Odil aka tomon yurib) poytaxtdan kelyapsanmih

Odil aka:(boshini qimirlatib) ha.

Kishi Odil akaning qo'liga qaraydi. Odil aka charmdan tikilgan kichikroq sumkachasini berkitadi.

Kishi2: unda nima bor?

Odil aka: (biroz cho'chib) dori.

Kishi2: (sherigiga qarab jilmayib qo'yadi) dori bor ekan, biz seni kutib turgandik. Uni berda ketaver.

Odil aka: berolmayman, o'zimga juda zarur...

Kishi1: (g'azab bilan) ahmoq, ikki soatdan beri seni kutamiz, aljirama.

Birdan Odil aka qochadi. Kishilar uni ortidan quvadi. Afsuski Odil aka uzoqqa qocha olmaydi. Uni tutib oladilar. Odil aka ularga tushintirishga harakat qiladi, lekin kishilar eshitishni ham hoxlamaydilar. O'rtada qisqa jang bo'lib o'tadi.

Mehnatda suyaklari pishib ketgan Odil akaning qo'li baland keladi. Lekin kishilardan biri uning ortidan kelib kuchli zarb bilan beliga pichoq tiqadi. Odil aka ingrab yerga yiqiladi. Kishilardan biri uning qo'lidan sumkani oladi. Shoshib ichini ochadi. Ichidan dorilar to'kiladi. Barchalari hayron bo'lishadi.

Kishi1: adashibmiz, ketdik.

Ular ketishadi. Odil aka yotgan joyida bazo'r o'zini o'nglaydi. Bir qo'li bilan belidagi pichoqni sug'uradi. Atrofga alanglaydi, o'zidan nari turgan sumkasini ko'radi. Sudralib sumka yoniga keladi. Sumkani olib ichini ko'radi, keyin sochilib yotgan dorilarni tera boshlaydi. Qo'llariga tayanib o'rnidan turadi.

Epizod 7

Tun. Kadr yo'lning xiralashgan tasviri bilan ochiladi. Tasvir tiniqlashadi. Yo'l bo'ylab ketayotgan Odil aka ko'p qon yo'qotganligi sababli boshi aylanayotgandi. Yerga yiqiladi. O'zini o'nglab tizzasi bilan o'tiradi. Shu payt qulog'iga chaqaloq yig'isi eshitiladi. Avvaliga Odil aka qulog'imga chalinyapti deb e'tibor bermaydi. O'rnidan turib ketayotganida chaqaloq yig'isini yana eshitadi. Odil aka yurishdan to'xtaydi va quloq tutadi. Rostdan ham o'zidan ancha narida chaqaloq yig'layotgandi. Odil aka shoshib oldinga qadam tashlaydi. Ariq ichida, o'tlar orasida matoga o'ralgan chaqaloq yig'layotgandi. Odil aka hayron bo'lib atrofga qaraydi. hech kim yo'qligiga ishonch hosil qilgach chaqaloqni asta qo'lga oladi. Odil aka: yig'lama, yig'lama bolam.

Uni avaylab ko'targancha uyi tomon keta boshlaydi.

Epizod 8

Xadicha opa ayvonda o'tiribdi. Darvozaning ochilganidan cho'chib ketadi.

Hovliga hamma joyi qon bo'lib ketgan Odil aka chaqaloqni ko'tarib kirib keladi.

Xadicha opa erining ahvolini ko'rib qo'rqib ketadi. Bir chaqaloqqa, bir Odil akaga qaraydi.

Odil aka: onasi...

Xadicha opa: sizga nima bo'ldih Nega hamma joyingiz qon. (ovozini balandlatib) meni qo'rqitmang, nima bo'ldih

Xadicha opa yugurib erining yoniga keladi. Odil aka xotini tomon yiqiladi.

Xadicha opa yerga o'tiradi, erini quchadi va qo'llari qon bo'ladi.

Xadicha opa: dadasi, nega jimsiz, ayting, nimalar bo'lyapti?

Odil aka: hammasi joyida, onasi. (chaqaloqni ko'rsatib) manabuni qara (zo'rg'a lablari qimirlab) kimdir zor bo'ladi, kimdir esa hor qiladi. Onasi, uni tashlab ketishibdi. Eshityapsanmi, tashlab ketishibdi.

Xadicha opa: Odil aka, (atrofga qarab) kim bor, yordam beringlar (yig'lab) yordam beringlar.

Odil aka: Xadicha, onasi, yig'lama. Senga bir yangiligim bor, (kulimsirab) biz farzandli bo'larkanmiz, yig'lama, biz farzandli bo'larkanmiz, endi bizning ham farzandimiz bo'ladi, to'ylar qilamiz, sen unga shiriniklar pishirib berasan, men o'yinchoqlar olib kelaman.

Xadicha opa: Bo'ldi qiling, o'zingizni urintirmang. (baqirib) kim bor, (qo'shni uyga qarab) Gulsara opa, Matluba opa, yordam beringlar.

Odil aka: Meni mahkam bag'ringga bos.

Xadicha opa erini mahkam bag'riga bosadi. Yig'laydi, birdan jim bo'lib qoladi.

Eriga qaraydi. Odil aka Xadicha opani yolg'iz tashlab ketishga ulgurgandi.

Xadicha opa: yo'q, (yig'lab) bunday qilishga haqqingiz yo'q, siz bunday qilolmaysiz.

Birdan osmonda qisqa ovozda chaqmoq chaqadi va asta yomg'ir yog'a boshlaydi.

Epizod 9

Yodgorning ketishi.

Qishloq har doimgidek odamlar o'z ishlari bilan band. Odil aka uyi yonidan o'tgan yo'l. Xadicha opa chaqaloqni ko'tarib yo'l bo'ylab ketmoqda. Yo'l chetida uch-to'rtta xotin suxbatlashib turishibdi. Xadicha opa ular bilan salomlashib o'tib ketadi. Xotinlar o'zaro suxbatlashadilar.

Ayol1:Xadicha farzand ko'rmagach Odil aka shahardan jazman ortirgan ekan, farzandni undan ko'rgan. Eri ularni ushlab olibdi, Odil akani pichoqlaganmish.

Ayol2: sharmanda, yaxshiyam o'z vaqtida farzandli bo'lganimiz, nega Xadicha chaqaloqni ko'tarib yuribdi ?

Ayo3: boqarmish.

Ayol1: bechora, sho'rlik, hech yorug'lik ko'rmadi.

Ayollar suxbatlashar ekanlar, taboro ulardan uzoqlashayotgan Xadicha opaga qarab qolishadi. Xadicha opa chaqaloqni ko'tarib qishloq yo'lidan ketib borarkan yuzlari mayusligidan nimalarnidir o'ylayotganligini anglash mumkin.

Epizod 10

Poytaxt. Shaharning o'sha paytdagi ko'rinishidan qisqa lavxalar ko'rsatiladi.

Hovlili uy darvozasi oldida turgan Xadicha opa u darvozaga qarab turibdi.

Epizod 11

Sport zal. Sport zal ko'rinishidan unchalik qulayliklarga ega emas, o'rtada ring, ringning to'rt tomoniga oxori to'kilgan arqon tortilgan, chetdagi devor yaqiniga ikkita qop ilingan, qoplarning yon tomonida esa turli vazndagi toshlar qo'yilgan. Sport zalga murabbiy Shuxrat aka va chaqalog'ini ko'targan Xadicha opa kirib keladi.

Shuxrat aka: mana shu joy, unchalik katta emas.

Xadicha opa zalga sinchiklab qaraydi.

Xadicha opa: ozgina kechroq bo'lsa ham bo'ladimih Chunki boshqa joylarni ham tozalashim kerak.

Shuxrat aka: bemalol, mashqlarni kech boshlaymiz. (bolaga qarab) senga yoqtimih
Isming nima?

Xadicha opa: Yodgor.

Shuxrat aka: Yodgor deng. Men bora qolay, kalitni qorovulga tashlab ketasiz.

Xadicha opa: xo'p.

Shuxrat aka: Yodgor, yur olib ketay, meni ham senga o'xshagan o'g'lim bor.

Shuxrat aka ketadi. Xadicha opa Yodgorni maxsus sumkachaga solib ish qila
boshlaydi.

Xadicha opa pol artmoqda. Polni artarkan, shvabra ustiga tashlangan latta
ko'rsatiladi. Latta polda sudralib borib kelmoqda. Shvabra dastasi ko'rsatilib
yuqoriga ko'tarilganda Xadicha opa boshqa kiyimda, soch turmaklari
o'zgargan, jilmayadi va "Yodgorjon" deydi. Qop ortidan uch yoshlardagi Yodgor
kulimsirab chiqadi.

Xadicha opa: (jilmayib) nima qilyapsan?

Yodgor: o'ynayapman!

Xadicha opa: extiyot bo'l.

Yodgor xo'p degandek boshini qimirlatadi va qopni ushlab turadi.

Xadicha opa: akalar uni nima qiladi?

Yodgor musht qilib urib ko'rsatib beradi. Yosh Yodgor qopni jajji qo'llari bilan
ura boshlaydi. qop asta qimirlaydi. Qop bir-muddat ko'rsatiladi. Shu payt
qaerdandir qiz bolaning erkanib "Yodgorjon" degan ovozi eshitiladi. Qop ortidan
egniga sport formasini kiygan yigirma uch yoshlardagi Yodgor chiqadi. U xayron
bo'lib qaraydi va "sen bu erda nima qilyapsan" deydi. Undan nariroqda
ko'xlikkina qiz, Mohina turgandi.

Bugungi kun!

Mohina: nima mumkin emasmi?

Yodgor: bu yer mashq zali, holangni uyi emas.

Mohina: qani menga aytchi, nega uch kundan beri yo'qsan?

Yodgor: men senga xisob bermayman.

Shu payt Dilshod “unda menga xisob berarsanh” deb kirib keladi. Uning bir ko’zining atrofi biroz ko’kargan.

Yodgor: (unga qarab) hech qachon.

Dilshod: oxirgi paytda do’stligimizni ham yeg’ishtirsak bo’ladi shekil.

Yodgor: men sen bilan do’stmidim.

Mohina polga konfet qog’ozini tashlaydi.

Yodgor: tezda ol, uyingga borganda shunday qilasan. Qani boraqol. (Dilshodga) yana ko’zing ko’karibdimi?

Dilshod: bilmadim, hech tuzalmayapti.

Mohina Yodgorga bir-muddat qarab turadi-da hafa bo’lganligi bois indamay chiqib ketadi.

Dilshod: (uning ortidan qarab) shunday qizni xafa qilding.

Yodgor: havas qilayotgan bo’lsang, seni ham hafa qilishim mumkin.

Yodgor chetga o’tiradi. Dilshod ham uni yoniga o’tiradi va Yodgorga qaraydi.

Yodgor: bozorda edim, yuk tashidim. Bilasan-ku tirikchilik degandek.

Dilshod: buni aybi yo’q muhimi halol. Oying yaxshimilarni

Yodgor: yaxshilar, bugun ularning tug’ilgan kunlari.

Dilshod: ha, qani ozroq mashq qilib keyin senikiga boramiz.

Epizod 12

Shaxar ko’chalaridan biri. Yo’ldan tinimsiz mashinalar o’tmoqda. Mazkur ko’chaning bir tomonida bir-biriga tutashib ketgan do’konlar joylashgan. Yo’l chetida Yodgor va Dilshod o’zaro baxslashib kelishmoqda. Yurishdan to’xtaydilar.

Yodgor: onamni sendan ko’ra yaxshiroq bilsam kerak.

Dilshod: hechamda, men sendan ko’ra yaxshi bilaman. Masalan ular qaysi ovqatni yaxshi ko’radilar?

Yodgor: (o’ylanib) Sho’rvani, bo’ldimi!

Dilshod: adashding, dimlamani. Ishonmasang bugun senga isbotlab beraman.

Yodgor: (asabiylashib) mushk-anbar bo'lmaydi. Idishi barmog'imdek keladi, kattaroq sovg'a olish kerak.

Dilshod: onalarning barchasi yaxshi ko'radi. Katta narsa sovg'a qilmoqchi bo'lsang, fil sovg'a qil. Yoki bo'lmasa avtobus, balki katta kran olib berarsan.

Yodgor: ustimdan kulma, mushtim zarbini yaxshi bilasan.

Shu payt "Salom!" deb Mohina katta ayiqcha ko'tarib keladi. Ikkilari Mohinaga va qo'lidagi ayiqchaga hayron bo'lib qarashadi.

Mohina: Kechga qolmadimmi?

Dilshod: yo'q, juda vaqtida kelding. Qo'lingdagi nima?

Mohina: sovg'a.

Dilshod: ketdik, yo'lda biror narsa o'ylab topamiz.

Dilshod keta boshlaydi. Yodgor unga yetib oladi.

Epizod 13

Tun. Hovlili uy. Dilshod so'ri yonida tik turibdi, qolganlar so'ri ustida o'tiribdi.

Dilshod: onajonim, yana bir bor tabriklayman. Bugun men mana bu ikkalasiga asli ovqat qanday bo'lishini ko'rsataman, bu ularga maktab bo'ladi, o'rganishadi.

Qolaversa meni topqirligim bilan siz yaxshi ko'radigan ovqatni pishirganman.

Bular ham yordam berganday bo'lishdi.

Dilshod oshxonaga kirib ketadi. So'ridagilar kulishadi.

Epizod 14

Shaharning moshina unchalik gavjum bo'lmagan, torroq ko'chalaridan biri.

Mazkur yo'lda asosan yo'lovchilar yurishadi. Shunga qaramay bir-ikki mashinalar ham yuribdi. Kadr tezlik bilan ketayotgan mototsikl g'ildiraklari bilan ochiladi.

Mototsikl rulining ikki tomoniga o'rnatilgan yumaloq oynalarning biridan uni boshqarib ketayotgan Mohinaning yuzlari ko'rsatiladi. Mototsikl yo'ldan yeldek uchib boradi. Qo'l tormozini bosadi, ishlaymaydi, hayron bo'lib oyoq tormozini bosib sekinlamoqchi bo'ladi. Chunki, qarshisida burilish kelayotgandi. Lekin, oyoq

tormozi ham ishlamaydi. Mohina asabiylashib yana tormozni bosadi, ishlamaydi.. Burilish keladi.Mohina chaqqonlik bilan mototsiklni buradi.Nima qilishini bilmay dovdirab qoladi. qarshisida chiqayotgan odamlarga qarab “Qochinglar” deya baqiradi. Bir yigit yo’lni kesib o’tayotgandi. Mohina unga qarab “Qoch” deb baqiradi.Yigit u tomonga qaraydi. Tezlik bilan kelayotgan mototsikl yigitni urib yuboradi. Yigit chaqqonlik bilan chap berishga ulguradi. Shunga qaramay mototsikl uni biroz turtib o’tadi. Yigit erga yiqiladi. Rulni keskin burgan Mohina mototsikl bilan yo’l chetiga qulaydi. Yigit o’rnidan turadi. Egniga toza, yarashimli kiyim kiygan, qoshlari qora, soch va soqoli biroz o’sgan, ko’zlaridoim mayus bo’lib turuvchi bu yigit - Zafar! Zafar o’rnidan turadi va Mohina tomonga qaraydi. Mohina o’rnidan turishga harakat qilayotgandi. Zafar tezlik bilan uning yoniga boradi. Mototsikl Mohinadan nariroqda edi.

Zafar:(Mohinaning qo’lidan ushlab turg’azishga harakat qilarkan) yaxshimisiz, hech narsa qilmadimi?

Mohina: (o’zini o’nglab) menimcha ko’p narsa qilishga ulgurgan.

Mohinaning bosh kiyimi tushib sochlari yoyilib ketgan. Uning chiroyli yuzi ko’rinadi. Zafar Mohinaga qarab qoladi. Mohina o’zidan nariroqda turgan mototsiklga qaraydi.

Mohina: tormoz ishlamayotgandi, nega yo’limdan chiqdingiz. Nega qochmadingizh

Zafar: qochishga harakat qildim, lekin bo’lmadi.

Mohina: uzr, sizga hech narsa qilmadi degan umiddaman.

Zafar: oyog’imni biroz og’rishini hisobga olmasa hech narsa qilgani yo’q.

Zafar o’tirib mototsiklni ko’zdan kechira boshlaydi. Zafar mototsikl muruvatlarini buraydi. O’rnidan turib yurgazib ko’radi. Mototsikl yuradi. Zafar mototsiklga o’tiradi.

Zafar: qarshilik qilmasdan o’tiring, olib borib qo’yaman.

Mohina Zafarga bir-muddat qarab turadi-da indamasdan o'tiradi. Mototsikl asta joyidan qo'zg'aladi. Mohina beixtiyor Zafarning bellaridan ushlab oladi. Yo'l bo'ylab mototsikl ketadi.

Epizod 15

Tun. Ishdan chiqqan zavod binosining oldi. Binoningn zanglab ketgan darvozasi oldida chiroq yonib turibdi. Ikki odamni sharpasi ko'rinadi. Yorug'roq joyga chiqishadi. Ular Yodgor bilan Dilshod edi. Dilshod nimalarnidir tushintirmoqda. Yodgor do'stining gaplarini tinglab darvoza oldiga kelarkan hayron bo'lib zavodga qarab qo'yadi.

Yodgor: menga qara, kel qaytib keta qolaylik.

Dilshod: tushinmadim, eshik oldidan qaytib ketamizmi?

Yodgor: bundan yaxshilik chiqishiga ko'zim etmaydi. Agar dadang...

Dilshod: (gapini bo'lib) sen aytmasang dadam bilmaydilar.

Yodgor: bu joy menga yoqmayapti.

Dilshod: tashqi ko'rinishga qarab xulosa chiqarib bo'lmaydi.

Dilshod bino ichiga yo'l oladi. Yodgor hoxlamaygina uning ortidan ergashadi.

Epizod 16

Bino ichi. Keng maydon, maydon o'rtasida to'tr tomoni temir setka bilan to'silgan ring, ringda ikki kishi jang qilmoqda, ring atrofni esa odamlar o'rab olgan.

Ko'pgina odamlarning qo'lida stakan, shisha, ular ichishib urishayotarlarga qarab baqirishmoqda. Dilshod jilmaib kirib keladi, uning ortidan ajablangancha Yodgor kirib keladi. Dilshod odamlar orasiga borib qo'lini ko'tarib bir-ikki baqiradi va bir-necha odamlar bilan ko'rishadi. Yodgor atrofni ko'zdan kechidi. Asta ring atrofiga yaqinlashadi. Ringda jang ketmoqda. Ikki yigit urishyapti, avvaliga kuchlar teng keladi. Ulardan biri bilaklariga qizil ro'molcha bog'lab olgan. qizil ro'molchali yigit raqibidan ustun kela boshlaydi. Yodgor avvaliga uning yuzlarini ko'ra olmaydi. O'girilganda ko'radi, bu Zafar edi. Zafar raqibini yiqitadi.

Boshqaruvchi:hammasi ajoyib, klass. Zafar doim zafar quchib kelmoqda, haligacha u mag'lublik nimaligini bilmaydi. (ring ichida aylanib) u qachon yengiladi, buni hech kim aytib bera olmaydi. Xurmatli qatnashchilar, orangizda u bilan jang qiladigan mard bormih qachongacha mukofatni u olib ketishiga qarab turaverasizlar.

Ring chetda turgan Zafar kuladi. Odamlar baqirishadi. Yodgor bar yoniga borib suv xarid qiladi.Shu payt boshqaruvchini "Nomzod topildi, o'ziga xos jangchi Dilshod" degan ovozini eshitadi. Hayron bo'lib ring tomonga qaraydi. Dilshod ringda turgandi.Yodgor qo'lidagi suvni tashlab ring yoniga keladi. Dilshod temir setkani urib hayqirayotgandi. Ringga Zafar chiqadi. Yodgor bir Zafarga, bir do'stiga qaraydi. O'rtada jang boshlanadi. Birmuddatgina kuchlar teng keladi, keyin esa tajribali Zafarning qo'li baland kela boshlaydi. Dilshod harchand qarshilik ko'rsatmasin natija chiqara olmaydi. Dilshod yerga qulaydi, o'rnidan turadi. Jangni asabiylashib kuzatayotgan Yodgor do'stiga qarab turarkan o'ziga o'zi "o'rningdan turma" deydi. Dilshod Zafarga qarab otiladi. Raqib chap berib yuziga musht tushiradi. Dilshod yerga qulaydi. Beixtiyor Yodgor otilib ringga chiqadi. Dilshod qo'llaridan ushlab o'rnidan turg'azadi. Zafar mag'rurlanib qo'llarini ko'taradi.

Yodgor: ko'zing ko'karib yurishini endi tushindim.

Boshqaruvchi: Zafar doim zafar quchadi.

Yodgor: (unga qarab) faqat bugun emas.

Yodgor ringga chiqadi.

Boshqaruvchi:jang qizigandan qizimoqda, shunga yarasha mukofat ham oshib boryapti. (Yodgorga qarab) biz sizni birinchi marta ko'rib turibmiz. Ismingiz?

Yodgor: Yodgor.

Boshqaruvchi: Yodgor va Zafar juftligi, xushyor torting tomoshabinlar, chunki jang davom etadi. Zafar bilan Yodgorning ko'zlari to'qnashadi.Jang boshlanadi. Yodgor chaqqonlik bilan jang qila boshlaydi. Uning harakatlarini ko'rgan tomoshabin hayqiradi. Zafar ham xayron bo'ladi. Zafar qancha xujum qilamsin

Yodgordan munosib qarshilikka uchraydi. O'rtada tengma-teng jang bo'ladi. Zafar u tomon tashlanadi, Yodgor engashib bo'yni aralash yuziga musht tushiradi. Zafar mufozanatini yo'qotib yerga o'tirib qoladi. Chetda turgan boshqaruvchining ko'zlari kattalashadi. Tomoshabinlar bir-muddat jim bo'lib qolishadi. Burchakda, devor yonida jangni kuzatib turgan qora ko'z oynakli kishi ajablanib ringga qaraydi va boshqaruvchiga qaraydi. Boshqaruvchi "bilmadim" degandek boshini qirmirlatadi. Zafar o'rnidan turadi. Jangni davom ettirish uchun Yodgorga qarab qo'lini musht qiladi. O'rtada qisqa jang bo'ladi. Zafar yerga qulaydi. Odamlar bo'lib o'tgan jangdan zavqlanishadi. Yodgor qo'llarini ham ko'tarmay ringdan tushib Dilshodni yoniga keladi.

Yodgor: ketdik.

Boshqaruvchi Yodgorning ortidan keladi.

Boshqaruvchi: shoshmang, (Yodgor yurishdan to'xtaydi) mukofatingizni oling. (pul beradi, jilmayib) endi sizni kutamiz.

Yodgor: men bu uchun kelmadim.

Dilshod va Yodgor chiqib ketishadi.

Epizod 17

Sport zal. O'rtadagi ring oldida ancha keksayib qolgan Shuxrat aka, uning qarshisida Yodgor yerga qarab turibdi.

Shuxrat aka: hech kim mushti bilan yaxshilikka erishmagan. U erga borish fikri kimdan chiqdi?

Yodgor: mendan.

Shuxrat aka: qachondan beri?

Yodgor: ko'p bo'lgani yo'q.

Shuxrat aka: to'g'ri, u yerda ko'p pul topish mumkin, lekin puli halol emas, harom. Boks bu mushtiga zo'r berish yoki o'zini ko'rsatish emas. Bu sport, sport esa doim halol kurash degani. Sen sportga loyiq emassan. Bu erga boshqa kelmasligingni maslaxat beraman.

Shuxrat aka chiqib ketadi. Bir ko'zi ko'kargan Dilshod kiradi. Ikkisining ko'zlari to'qnashadi.

Dilshod: do'stim, nega bo'yningga olding?

Yodgor: ular meni haydadilar.

Dilshod: hozir hammasini to'g'rilayman.

Yodgor: (to'satdan) yo'q, ular to'g'ri qaror qabul qildilar, baribir aybdorman.

Dilshod: Yodgor...

Yodgor: (gapini bo'lib) baribir hech narsa o'zgarmaydi.

Yodgor chiqib ketadi.

Dilshod: (uning ortidan ergashib) to'xta, qayerga ketyapsan, men dadamga hammasini tushintiraman.

Epizod 18

Shahar bozorlaridan biri. Betonli rastalarga chiroyli qilib terilgan mahsulotlar, ularning oldida esa sotuvchilar. Bozor ortidagi darvoza oldida katta yuk mashinasi turibdi. Yuk mashinaning orqa eshigi katta qilib ochilgan, bir-necha yigit qoplardagi mahsulotlarni tushirishmoqda, ular orasida Yodgor ham bor. Yodgor ikkita qopni birdaniga ko'tarib bozor ichiga olib kirarkan yuzidagi peshonasidagi ter artib har zamon osmonga qarab qo'yardi. Darvoza oldiga qora ko'z oynak taqqan kishi bilan bir kishi kirib keladi. Kishi shoshib yurar, to'xtab xo'jayiniga nimalarnidir tushintirardi. Ko'z oynakli kishi tashlandiq zavodda uyushtirilgan jangni bir chetda kuzatib turgan kishi edi. Ular yuk mashinasi oldiga keladilar. Bu paytda Yodgor qoplarni bozor ichiga tashlab chiqayotgandi. Qora ko'z oynakli kishi ko'z oynagini yechib Yodgorga qaraydi.

Epizod 19

Kichikroq oshxona.. Mohina oshxonaga kiradi. Chetdagi stollardan birining yoniga o'tiradi. Xizmat ko'rchasatish joyida turgan ofitsant yigitlardan biri uni ko'rib yoniga keladi.

Ofitsant yigit: (taomnomani qo'yib) yaxshi keldingizmi, nima buyurasiz?

Mohina: olma sharbatini bor bo'lsa olib keling, kelguningizcha ovqat tanlab qo'yaman.

Ofitsant yigit mamnunlik bilan ketadi. Uzun, siqimi keng stakanda sharbatni patnis ustiga qo'yganida uni yoniga ichkaridan Zafar chiqadi.

Zafar: o'zim olib boraman.

Zafar Mohinaning yoniga keladi.

Zafar: salom, ovqat tanlab bo'ldingizmi?

Mohina: (kulib turgan Zafarga ajablanib qaraydi) siz, (oshxonaga bir qarab) bu erda nima qilyapsiz?

Zafar: ishlayman.

Mohina: ofitsant...

Zafar: (gapini bo'lib) shunday.

Mohina: (biroz dovdirab) men, o'sha kungi yordamingiz uchun yana raxmat aytaman.

Mohina taomnomani ushlab unga sinchiklab qaraydi.

Zafar: (uni kuzatib) agar hoxlasangiz ta'bingizdagi ovqatni o'zim olib kelsam.

Mohina: ha, albatta.

Zafar: tushinmadingiz, ovqat buyurmasangiz degandim, nima yeyishni istayotganingizni topishga harakat qilsam degandim.

Mohina: (jilmayib) qani ko'raylikchi.

Zafar patnisni ko'tarib ketadi. Mohina telefonini olib Yodgorga telefon qiladi.

Uning telefoni ekranida "Yodgor" degan yozuv chiadi.

Epizod 20

Telefondagi yozuv "Mohina" degan yozuv bilan almashinadi. Bozor. Rasta boshida Yodgor telefoniga qarab turibdi.

Yodgor: (telefonini ko'tarib) ha, bozorda ishdaman, kechroq o'zim qo'ng'iroq qilaman.

Yodgor qisqa suxbatdan so'ng telefonini o'chiradi. Yordamchi uni kuzatib turgandi.

Yordamchi:(Yodgorga qarab) telefonni qo'ysangchi, (uni yoniga yaqinlashib) boshliq shu yerda.

Yodgor yuk mashinasi tomon borib yuklardan birini oladi.

Epizod 21

Oshxona. Mohina o'tirgan stol ustiga Zafar ovqat qo'yishi bilan kadr ochiladi.

Mohina ajablanib sho'rvaga qaraydi . Zafar patnisdagi sho'rva bilan yeyish uchun boshqa narsalarni qo'yadi. Mohina kutilmagan bu sirni ochilganidan hayron bo'lib Zafarga qaraydi.

Mohina: (ajablanganidan ko'zlari porlab) sho'rvani yaxshi ko'rishimni qaerdan bildingizh

Zafar: atiringiz xididan. Ikki marta uchrashuvdan angladimki, siz gullar isi taraladigan, unchalik o'tkir bo'lmagan atir separkansiz. Bunday insonlar ko'proq suyuq ovqatni xushlaydilar.

Mohina: (jilmaygancha) siz... (hech narsa deyolmay) qoyil qoldim.

Epizod 22

Bozor. Yuk tushirilib bo'lingan. Yordamchi ularga o'z ulushlarini tarqatyapti.

Yodgor pulni olib shimining orqa cho'ntagiga soladi. Qora Ko'z oynakli kishi Yodgor tomonga yuradi. Yodgor kishining u tomon kelayotganligi ko'rib yurishdan to'xtaydi.

Kishi: men Jamolman.

Jamol aka: sen esa Yodgorsan.

Yodgor: (atrofga alanglab) xursandman.

Jamol aka: (yonidan tashrif qog'ozini chiqarib Yodgorga uzatadi) bu aynan seni maqsading sari olib boradigan manzil.

Yodgor tashrif qog'ozini olib unga bir qarab qo'yadi.

Yodgor: nima qilaman?

Jamol aka: borganingda hammasini ko'rasan.

Epizod 23

Tun. Hovlidagi so'rida Xadicha opa va Yodgor suxbatlashishmoqda.

Xadicha opa: Ish bilan biror joyga ketsalar tez qaytib kelishga intilardi. Meni hech yolg'iz qo'ygisi kelmasdi. Mahallamizdagi ba'zi ayollar shunday erim borligiga havas qilardi. Ko'z tegmasin deb o'ng bilaklariga ko'zmunchoq taqib qo'ygandim. Lekin (jilmayib) bu dadangga yoqmasdi. O'sha kuni "shaharga ketyapman, ko'zmunchoqni yechib qo'yaqolay, kelib taqarman" dedilar. Men har qancha harakat qilmayin qaysarlik qildilar. Xadicha opaning ko'zlari yana yoshlanadi. Yodgor o'ng qo'lga bog'langan ko'zmunchoqqa qaraydi.

Yodgor: men uni hech qachon yechmayman oyi.

Xadicha opa ko'z yoshlarini artib kulimsiraydi.

Epizod 24

Jamol akaning sport zali. Mazkur sport zali oldida Shuxrat akaning sport zali kichkina, sport uchun noqulay bo'lgan xona edi. Bu yer keng, yorug', hamma anjomlar yangi, sharoitlar keragidan ortiq. Yodgor sekin yurib kiradi. Spotchilar unga e'tibor bermay o'z ishlarida davom etishadi. Kimningdir "kulbimiz yoqtimi" degan so'zlar eshittiladi. Yodgor xursand holda ortiga burildi. Qarshisida Jamol aka turardi u ham sport kiyimini kiyib olgandi.

Jamol aka: (savolini takrorlab) kulbimiz yoqdimi?

Yodgor: chidasa bo'ladi, juda g'arib ekan.

Jamol aka: o'zimizga mosda, qo'limizdan kelgani shu. Maqsadga o'tib qo'yaqolay. Chaqirishimdan maqsad seni tarbiyalamoqchiman.

Yodgor: tarbiyalamoqchi. (devordagi mashxur boks ustalarining rasmlariga qaraydi)

Jamol aka: sendagi istak, ko'zlaringda chaqnab turgan olov bilan meni tajribamni birlashtirsak sen ham (devorlardagi rasmlarga ishora qilib) ularga o'xshashing mumkin.

Yodgor: (kulimsirab) ajdahoga o'xshaymanmi?

Jamol aka: (hayron bo'lib) nega unday deyapsan?

Yodgor: ko'zlarimdan olov chaqnar ekan.

Jamol aka:(jilmayib) Nima deysan O'ylab ko'r.

Yodgor: Men roziman.

Epizod 25

Sport zal, sportchilar mashq qilishmoqda. Yodgor saf tortib turgan toshlarni sekin yurgan holda urib chiqmoqda. Yodgor terlab ketganidan, qolaversa sust harakat qilayotganidan anglash mumkinki ancha charchagan. U qoplarni urishdan to'xtaydi. Ringda boshiga shlem kiygan ikkitasi boks tushmoqda. Yodgor ularga qarab qoladi. Ulardan birining harakati tezkor edi, chap berib tinmay raqibiga zarba beryapdi. Yodgor uning harakatlarini kuzatib turadi. Ringdagilar jangni to'xtatishadi. Bir sportchi shlemi echib ringdan tushib ketadi. Ringda qolgan sportchi burchakga kelib asta shlemi echadi. Bu – Zafar! Zafar ringdan tushadi. Shlemi ko'tarib zal oralab ichkari tomon keta boshlaydi. Ular bir-birlarini ko'radilar. Zafar ichkariga kirib ketadi. Yodgor qop oldida turarkan hayolida nimalarnidir o'ylaydi. Zafar ichkaridan chiqadi. Yodgor uni kuzatib turadi. Zafar zal o'rtasidan yurib keladi-da kutilmaganda Yodgor tomon yura boshlaydi. Yodgor qop tomonga o'girilib uni bir-ikki mushtlagandek bo'ladi. Zafar Yodgor urayotgan qopning yonidagi qop yoniga keladi. Zafar Yodgorga bir qarab qo'yib qopni ura boshlaydi.

Zafar:(q opiga bir musht tushirib) hech aqlim etmayapti, qanday qilib sendan yengildim.

Yodgor: buni tushinishga yoshlik qilasan.

Zafar: aniq bilaman, sen professional emassan.

Yodgor: balki, sen o'rgatarsan. Qanday yiqilishni demochchiydim.

Zafar:(jahl bilan qopga zarba berib) Yaxshisi sen boshqa raqib tanlagin, chunki men havaskorlar bilan jang qilmayman.

Yodgor: qo'rqupsanmi, (miyig'ida kulib) bunchalik "baquvvat" yurak bilan boksda nima qilib yuribsan.

Zafar raqibiga tashlanadi. Yodgor chap berib qoladi. O'rtada jang boshlanadi. Boshqa sportchilar ularni yoniga keladilar. Ikkila sportchi ham raqibiga bergan zarbasidan munosib javob olayotgandi. Sportchilar ularni ajratishga harakat qiladi, lekin ikkisi ham bir-birlariga tashlanadi. Ushbu sport zal murabbiyi, Jamol akaning yordamchisi Xasan aka kirib keladi.

Xasan aka: (ovozini balandlatib) bu erda nimalar bo'lyapti.

Sportchilar chetga qochishadi. O'rtada hansiraganida Zafar va Yodgor turgandi.

Xasan aka ularga jahl bilan qaraydi.

Epizod 26

Kadr bokschilar qopining uzunasi bilan ochiladi. Kadr asta pastga tushganida Yodgorning boshi ko'rinadi. U tik turgancha qopni yelkasida ko'tarib turgandi. Uning yonida esa Zafar ham shu holatda turibdi. Ular jazolangandi. Ikki raqibning ham yuzlari o'zgargan. Yodgor boshi aylanayotganligi sababli ko'zlari yumib ochadi.

Zafar: ba'zilar avvalroq sher edi, mushukka o'xshab qoldimi deyman.

Yodgor: mushukni yonida sher bo'laverish bo'lmaydi, chunki mushuk o'ksinib qolmasin.

Zafar: buncha oyog'ing qaltiramasa, tashlab yuboraver.

Yodgor: ozgina og'zing tinsa bo'lardi.

Epizod 27

Sport zal. Jamol akaning xonasi. Mashqlar, janjal va jazo natijasida Yodgor ancha charchagandi. Yuzlari horg'inlashgan, ko'zlari bilinar-bilinmas yumilgan. Yodgor Jamol aka bilan nimadir ustida baxslashmoqda.

Yodgor: keyin o'zing bilib olasan degandingiz, bildim. Demak, siz shu maqsadda tarbiyalar ekansizda. UZR, ko'cha janglariga qatnashmayman. Bu yerdan ketganim yaxshi.

Jamol aka: seni bu erga chempion qilish uchun olib kelganman. Nega aytaymih Chunki, unday janglardan charchadim.

Yodgor: Agar bu hol davom etaveradigan bo'lsa, qaysi yigitni u yerga olib bormang ertangi kuni yaxshi bo'lmaydi deb o'ylayman.

Jamol aka: (jyilmayib) ba'zida majbur bo'lasan. Qo'rqma, ko'cha janglarini yig'ishtiramiz.

Yodgor: men qo'rqayotganim yo'q...

Jamol aka: (jilmayib) bilaman qo'rqmaysan. (qog'oz qo'yib) bu besh yillik shartnoma. Jamol aka kulimsiraganicha ruchkani Yodgorni yoniga qo'yadi.

Yodgor jiddiylik bilan Jamol akaga bir qarab qo'yadi-da shartnomaga qo'l qo'yadi.

Yodgor sumkasini ko'tarib chiqib ketadi.

Epizod 28

Hovli. Yodgor hovliga kirib keladi. Xadicha opa hovliga chetidagi, tok ustunlariga birin-ketin bog'langan ipga yuvgan kiyimlarini yoymoqda. Yodgor onasini bir-muddat kuzatib turadi. Kiyimni yuvayotgan Xadicha opaning ko'zlari tinadi.

Kiyimni ip tomon ko'targancha jim turadi. Yodgor hayron bo'lib onasiga qaraydi.

Oshxonadan ko'zlarini ishqalab chiqqan Mohinani ko'rib uning diqqati bo'linadi.

Mohina: (jilmayib) iya, kelsinlar.

Yodgor: (onasini kuzatib) salom.

Xadicha opa: qachon kelding?

Yodgor: hozirgina. (Mohinaga qarab) sen bu yerda nima qilyapsan?

Mohina: o'zim, (bahona topgandek) holamni ko'rgani keldim. Ovqat qilyapman.

Yodgor: essiz, bilganimda ko'cha ovqatlanib kelardim.

Yodgor xonasiga kirib ketadi. Mohina bo'lsa asabiylashib oshxonaga kirib ketadi.

Xadicha opa kulimsiraydi. Kiyimlarni yoyishda davom etadi.

Epizod 29

Oshxona. Mohina qozon oldida. Zo'r berib ovqat qilmoqda. Yodgor kiradi.

Mohina yuzini buradi va o'zini ish bilan banddek ko'rsatadi.

Yodgor: (eshik dastasini ushlagancha Mohinaga qaramasdan) uy yumushlarida onamga yordam berayotganing uchun raxmat, yoshlikdan birga o'sganmiz, bir

sinfda o'qiganmiz, lekin bu bo'yi etgan qizni birovni uyiga kelib ovqat qilish huquqini bermaydi. Buni to'g'ri tushinishingni istardim. Yodgor chiqib ketadi.

Epizod 30

Shahar ko'chlaridan biri. Yo'ldan tinimsiz mashinalar o'tmoqda. Mohina yo'l bo'ylab o'yga tolgancha yurib kelmoqda, birdan to'xtaydi. Ketayotgan tomoniga qarab qoladi. Undan ancha narida, bir bino oldida Zafar bir yigit bilan gaplashib turgandi. Mohina asta yura boshlaydi. Zafar uni ko'radi. Uzoqdan ikkisining ko'zlari to'qnashadi. Mohina asta qadam tashlab borarkan Zafar unga hayron bo'lib qaraydi. Yigit Zafar bilan xayrlashib ketadi. Zafar tratuarga chiqadi, Mohina unga yaqinlashib keladi. Ikkisi ham bir-birlariga qaraydi.

Mohina: (sekingina) salom.

Zafar: hayrlik kech. Mototsiklingiz qayerda?

Mohina: uyda, o'sha kungi voqeadan keyin dadam minishga ruxsat bermadilar.

Zafar: to'g'risini aytsam, nimadandir siqilayotganingiz meni tashvishga solyapti. Yurishdan to'xtaydilar. Ikkisining ko'zlari to'qnashadi. Mohina ko'zlarini olib qochadi.

Mohina: o'ylamaslikka harakat qilaman, baribir o'ylayman, keyin sog'inaman, ko'ramoqchi bo'laman, ko'raman ham, aytmoqchi bo'laman, lekin aytolmayman. Chunki, uning o'zi aytishini, sog'inishini istayman.

Zafar: kutishingiz kerak, jur'ati etmayotgandir, uning qalbi ham bezovtalanayotgandir, balki bir kun tilga kirar.

Mohina: balki... (sukut)

Zafar: yana bir gap. (Mohina yurishdan to'xtaydi) endi angladim, o'sha yigitning ko'zlari ko'r ekan.

Mohina Zafarga bir qarab qo'yadi-da ketadi. Zafar uning ortidan bir-muddat kuzatib turadi, keyin u ham ketadi.

Epizod 31

Shuxrat akaning sport zali. Egnilariga oddiy kiyimlarni kiyib olgan bir-necha yigitlar mashqqilishmohda. Shuxrat aka ularga ko'rsatma beryapti. Dilshod dadasi aytgan ko'rsatmalarni diqqan bilan tinglab keyin mashqlarni bajarishga o'tadi. Yodgor keladi. Yigitlar unga qarab jilmayishadi, xatto Dilshod endi uning yoniga boraman deganida Shuxrat aka "davom etinglar" deydi. Shuxrat aka Yodgorni keladi. Ular qo'l berib so'rashadilar.

Sport zalning xonasi. Devorlariga osilgan ikki suratni xisobga olmaganda xona deyarli bezatilmagan. Siniq stol ikki tarafida Shuxrat aka bilan Yodgor o'tiribdi. Shuxrat aka: seni qancha kutdim, kelmading.

Yodgor: o'zingiz haydab yubordingiz-ku, endi kelmayman.

Shuxrat aka: (hayron bo'lib) nega?

Yodgor: boshqa ustoz topdim.

Shuxrat aka: (beparvodek) ha, gohida ustozni ham almashtirib turish kerak. Bu er yurganingda chempion bo'lolmasding.

Epizod 32

Sport zal tashqarisi. Yodgor ketmoqda. Zaldan Dilshod chiqadi va do'stining ortidan yuguradi.

Dilshod: Yodgor, shoshma.

Yodgor yurishdan to'xtaydi.

Dilshod: ketyapsanmi?

Yodgor: shunday, endi bu erga kelmayman, boshqa zal topdim, ustozim ham boshqa.

Dilshod: obbo sen-e, zalni yangilabsan, ustozni yangilabsan, do'stni ham yangilagandirsan.

Yodgor: ha.

Dilshod hazil bilan aytgan gapidan bunday javob olishni istamagandi. Do'stining gapi esa uni hayratga soldi.

Dilshod: hazillashyapsanmi?

Yodgor: to'g'ri tushin, sen bilan boshha lalalay qilib yurolmayman. UZR.

Yodgor ketadi. Dilshod uning ortidan harab holadi.

Dilshod: (uning ortidan bahirgancha) yo'h-e, katta yigit bo'lib qoldingizmi, biz yosh bolamizda, sizni maqsadingiz bor, biz esa bemaqsad yashaymiz, shundaymi.

Bilsang do'... (to'xtab) Yodgor buzoqni yugurgani somonxonagacha.

Yodgor unga e'tibor bermay ketaveradi. Dilshod uning ortidan qarab turadi-da zalga kirib ketadi.

Epizod 33

Tun. Jamol akaning zali. Yodgor qoplar oldida, tinmasdan qoplarni urmoqda. Zalga Zafar kirib keladi, ring yonida sinikrs eb Yodgorga qarab turibdi.

Yodgor buni sezadi, Zafarni ko'rib mashqni to'xtatadi.

Zafar: Zarbalarining kuchli, lekin maqsadsiz. Boksda xar bir zarba biror maqsad bilan yuborilishi kerak.

Yodgor indamaydi. Qoplarga bir-ikki urgandek bo'ladi. Uni kuzatib turgan Zafar sinikersni oxirgi bo'lagini tishlab qog'ozini polga tashlaydi. Yodgor harakatdan to'xtaydi. Bir bir Zafarga, bir polda yotgan qog'ozga qaraydi. Zafar hayron bo'lib yerda yotgan qog'ozga qaraydi.

Yodgor: sen esa qo'ling bilan hamma joyni iflos qilib yurasan.

Zafar: tushinmadim.

Yodgor: (poldagi qog'ozga ishora qilib) uni olib qo'y.

Zafar: (kulimsirab) bu gapingni ertalab kelib farroshlarga aytasan.

Yodgor: Olib qo'ysang biror yering kamayib qoladimi?

Zafar: kamayib qoladi, aftidan binoyidek farroshga o'xshaysan yoki ota-onang farroshmi?

Yodgor: (jahl bilan baqirib) o'chir ovozingni. Ota-onam bilan ishing bo'lmasin.

Zafar: menga baqirma, nima hilishni o'zim bilaman.

Yodgor: (ring tomonga keladi) shlem va qo'l hopsiz olishishga nima deysan, boks qonunlari unutiladi.

Zafar: o'sha kungi alamimni olish uchun qanday fursat.

Yodgor asabiylashgan holda ringga chiqadi.

Zafar: yutqazgan (poldagi sinikrs qog'oziga ishora qilib) o'sha qog'ozni olib qoo'yadi.

Jang boshlanadi. Avvaliga ikkisi ham extiyotkorlik bilan masofa saqlab jang olib borishadi. Keyin, sekin-asta jang shiddat oladi. Ikkisi ham bir-birlariga navbatma-navbat zarba berishadi. Yodgorga nisbatan Zafar tetik edi, shu boisdan u raqibini dovdiratib qo'yadi. Ma'lum vaqt davom etgan jangdan so'ng Yodgor yerga yiqiladi. U bazo'r o'rnidan turib o'zini o'nglaydi. Oyoqda zo'rg'a turib Zafarga tashlanmoqchi bo'lib yerga yiqiladi.

Zafar: bas, etar. Yaxshi jang uchun senga raxmat.

Zafar ringdan sakrab tushadi. O'zi tashlagan sinikrs qog'ozini olib chetda turgan maxsus chelakka tashlaydi. Yodgor o'zini o'nglab ringdan tushadi. Jang natijasiga ko'ra Zafarning qoshi, Yodgorning esa labi yorilgandi. Zafar sherigiga yordam kerakmi degandek qarab turadi-da zaldan chihib ketadi. Yodgor qoplar oldiga kelib bor kuchini yig'adi, keyin qopga zarba beradi.

Epizod 34

Zafarning kichik oshxona oldidan o'tgan tratuar. Mohina va Yodgor tratuar bo'ylab kelmoqda.

Yodgor: do'st topishni o'zimga qo'yib berganing yaxshi.

Mohina: do'sting ko'p bo'lsa nima qilibdi, qolaversa u oliyjanob yigit.

Yodgor: yo'g'-e.

Mohina: qaysarlik qilma, qolaversa birato'la shu yerda ovqatlanib olamiz. O'sha yigit bilan tanishib do'st bo'lishingni hoxlayman, har safar sen meni hafa qilganingda u yupatadi.

Yodgor: qachon men seni hafa qildim?

Mohina: (kesatib) to'g'ri, sen meni hali xafa qilganing yo'q.

Yodgor: yaxshi, qani ko'raylik o'sha oliyjanob tanishingni.

Ular Zafarning oshxonasiga kirib ketishadi.

Epizod 35

Oshxona ichi. Mohina va Yodgor oshxonaga kirishadi. Mohina avval o'tirgan stolga o'tirishadi. Ofitsant ularning yoniga keladi.

Ofitsant: (jilmayib) xush kelibsizlar, (menyuni qo'yadi) nima...

Mohina: (gapini bo'lib) avval kelganimda sizdan keyin menga xizmat qilgan yigitni chaqirib yuborsangiz.

Yodgor oshxonani ko'zdan kechiradi. Ofitsant ketadi. Ichkaridan Zafar chiqadi.

Odamlarga haraydi va chetda o'tirgan Mohina va bir yigitni ko'radi. Yodgor orqa qilib o'tirgani bois uning yuzlarini ko'ra olmaydi. Zafar ular tomon kela boshlaydi.

Mohina Zafarni ko'rib jilmayadi va o'rnidan turadi. Yodgor o'tirgan joyida orqaga qayriladi. Zafar yurishdan to'xtaydi, Yodgor kutilmagan bu uchrashuvdan

ajablanib o'rnidan turadi. Ikkisi bir-birlariga qarashadi. Mohina hayron bo'ladi. Zafar Yodgordan ko'zini uzmay ularni yoniga keladi.

Mohina: (jilmayib) salom, tanishinglar bu...

Yodgor: (gapini bo'lib) shart emas, bizlar tanishmiz. hali oliyjanob yigit deb mahtaganing shumi. (Zafarga qarab) buning turgan bitgani eee....

Zafar: balki, bas qilarsan. Har holda qiz bolaning oldidasan.

Yodgor: (miyig'ida kulib) O', (kesatib) oliyjanob inson, kimni yonida turganimni unutibman, raxmat sizga eslatganingiz uchun.

Mohina: tushinmadim, sizlar tanishmisizlar.

Yodgor: (kesatib) yo'q, tanishtirmaysanmi... Men ketdim. (Zafarga bir qarab Mohinaga) ishtaham buzildi. O'zing qolishing mumkin.

Yodgor chiqib ketadi.

Mohina: undan hafa bo'lmang, (sumkasini olib) sizlarni bunday tanish ekanliklaringni bilmabman. Oxirgi paytda jaxli tez bo'lib qolgan. UZR.

Mohina ham oshxonadan chiqib ketadi. Zafar uning ortidan qarab qoladi.

Epizod 36

Jamol akaning sport zali. Egnilariga formalarini kiygan sportchilar bir qator bo'lib turishibdi. Ular orasida Zafar va Yodgor ham bor. Sportchilar oldida Jamol aka bilan yordamchisi Xasan aka yuribdi. Jamol aka ko'taringki kayfiyatda gapirmoqda.

Jamol aka: bir oydan keyin chempionat. Bundan keyin tayyorgarlik o'ta jiddiy bo'lishi kerak. Kim bo'shshasajazolanadi. Barchasini o'zim nazorat hilaman. Bugal chempionlikni hech kimga berib qo'ymasligimiz kerak. Olg'a!

Barcha sportchilar sport zalni turli burchaklariga borib mashqqila boshlaydilar. Yodgor doimgidek qoplar yoniga boradi. Zafar tosh ko'tara boshlaydi. Yodgorning tosh ko'tarayotgani, anjumaniya hilayotgani, ringda Xasan aka bilan boks tushayotgani, qop urayotgani, yotgan holda qorin mushaklarini pishitayotgani, sportchilarning biri bilan boksga tushayotgani beriladi. Ring atrofida boshha sportchilar, Jamol aka va Xasan akalar turishibdi. Rahib Yodgorga zarba beradi, Yodgor boshini egib gavdasini ko'taradi. Yodgor gavdasini ko'targanda chempionatga o'tish bo'lib ulanadi. Yodgor rahib bilan jang qilmohda. Ring atrofidagi o'rindhilarida tomoshabinlar o'tiribdi. Jangni baxolab borayotgan mutaxassilar ham boshlarini ko'tarib jangni kuzatishyapti. Raund tugaydi, refere bokschilarni qisqa tanaffusga chaqiradi. Yodgor xansiraganicha o'tiradi. Xasan aka ringga chiqadi.

Xasan aka: nega jangni uzoq masofadan olib boryapsan, qisqa masofani ol. Yana ikki raund chidasang sen chempionsan. Chalg'it, bir joyda aylanaverma.

Yodgor Xasan akaning ko'rsatmalariga javoban "ho'p" degandek boshini qimirlatib qo'yadi. Bong uriladi. Refere bokschilarni ringga chahiradi. Jang boshlanadi. Rahib shiddat bilan Yodgorga tashlanadi. Yodgor himoyalanadi. Yodgor birdan himoyadan chiqib rahibiga zarba beradi. Rahib muvozanatini yo'qotib polga qulaydi. Refere rahibni ko'zdan kechirib rahib jangni davom ettira olmasligini aytadi. Yodgor boshidagi shlemmini olib ikki qo'lini baland ko'targancha quvonadi. Barcha yangi chempionni qutlashadi. Sumka ichida

solingan telefon jiringlaydi. Sumka ichi yorishadi. Medallar topshirladi. Sumka ichidagi telefon yana jiringlaydi. Xasan aka va Jamol aka chempion bilan rasmga tushishadi. Sumka ichidagi telefon jiringlaydi. Formasini almashtirish uchun Yodgor ichkari xonaga kirib ketadi. Kadr tezlashib Yodgor kirib ketgan xona eshigi oldida to'xtaydi. Eshik asta ochiladi. Yodgor telefonda gaplashmohda. Birdan ko'zlari kattalashadi.

Epizod 37

Shaharda joylashgan kasalxona binolaridan biri. Yodgor sumkasini ko'targancha shoshilib zinadan ikkinchi qavatga chiqadi. So'ng zal bo'ylab yugurib keta boshlaydi. Yugurib ketayotganida zalda yurgan oq xalatli xamshiralarga urilib ketadi. Yodgor ularga e'tibor bermay yugurishda davom etadi. Zal o'rtasiikki taraflama eshik bilan to'silgan. Yodgor eshikni kuchli zarb bilan ochadi. Bu tomonda, tepasiga "jarroxlik bo'limi" deb yozilgan eshik yonida o'tirganlar cho'chib ketishadi. O'tirganlar orasida Mohina, Dilshod va ulardan narida bir ayol bilan erkak o'tiribdi. Dilshod va Mohina ular tomon kelayotgan Yodgorning vajoxatini ko'rib o'rnilaridan turishadi.

Yodgor: (ularni yoniga keladi) onamga nima bo'ldi , nima qildi?

Yodgor jarroxlik xonasi tomon yura boshlaydi. Dilshod uning yo'lini to'sadi.

Dilshod va Yodgorning ko'zlari to'qnashadi. Dilshod ko'zlarini olib qochadi.

Yodgor: nega indamaysan, ularga nima qildi?

Dilshod: o'zingni bos, xozir hammasini tushintiraman.

Yodgor: hoch yo'limdan ularni ko'rishimiz kerak.

Dilshod: (ovozini balandlatib) qaysarlik hilma, ichkariga hech kim qo'yilmaydi.

Ularga nima bo'lganini biz ham bilmaymiz. (ovozini pastlatib) anavu ayol bilan erkak uylaringga kelishgan ekan, suxbatlasha turib yuraklari birdan hujuj qilib qolibdi.

Dilshod ulardan ancha narida o'tirgan ayol va erkakga ishora qiladi.

Yodgor: (ularga bir qarab) ular kim?

Dilshod: (yuzini burib sekingina) ota-onang.

Yodgor turgan joyida bir muddat qotib qoladi. Berdan sergak tortadi.

Yodgor: nimalar deyapsan

Dilshod uning qo'lidan tutib chetda turgan stulga o'tqizadi. Mohina uning yoniga keladi. Yodgor beixtiyor o'ng qo'lini ko'tarib onasi otasidan yodgor bo'lib qolgan bilaklaridagi ko'zmunchoqqa qaraydi. Keyin birdan o'rnidan turib ayol va erkakning yoniga tez-tez yurib kela boshlaydi. Ayol va erkak Yodgorning xolatini ko'rib bir-birlariga qarashadi. Dilshod va Mohina Yodgorning ortidan ergashadi. Yodgorning ularning yoniga keladi. Ayol va erkak o'rnidan turadi. Yodgor ayolning ko'zlariga qaraydi. Ayol ham uning ko'zlari qaraydi. Yodgor ayolning ko'zlariga harab turarkan, ayol gunohkordek yuzini buradi

Yodgor: hozirgina ochilgan haqiqatni men tan olmayman. Hayotimdan ketinglar va boshqa uchramanglar.

Erkak: o'g'lim...

Yodgor: (baqirib) Ketinglar...

Dilshod: (erkak va ayolga) u to'g'ri aytdi, ketinglar

Ayol va erkak sergak tortadi. Sekin yurib zalni tark etishadi.

Epizod 38

Kasalxona. Jarroxlik bo'limining oldi. Yodgor deraza oldida tashqariga qarab turibdi. Mohina va Dilshod stulda o'tiribdi. Yodgorning telefoni jiringlaydi.

Yodgor telefon oynasidagi "Jamol aka" yozuviga harab turadi va o'chiradi. Xona eshigi ochilib doktorlardan biri chiqadi. Barchalari doktorni yoniga borishadi.

Doktor: bemorni yaqini bormi?

Yodgor: men o'g'illariman. (Doktor unga qaraydi)

Doktor: biz barcha amaliyotni o'tadik, avvaldan onangizni qon bosimi baland ekan. Tushirishga harakat qilyapmiz, tushmayapti. Onangiz infark ostonasi turibdilar. (Yodgor cho'chib ketadi) qon bosimini tushirib, zudlik bilan operatsiya qilish kerak. Buning uchun...

Yodgor: (gapini bo'lib) bu yohidan havotirlanmang, qancha bo'lsa topib kelaman.

Doktor: (yonidan qog'oz chiharib) mana bu dorilar bilan operatsiyaga tayyorlaymiz.

Mohina: (doktorni qo'lidan qog'ozchani olib) buni menga bera qoling.

Doktor kirib ketadi. Yodgor Mohinaga qaraydi.

Mohina: buni o'zim eplayman, sen operatsiyaga harakat qilaver.

Yodgor va Mohina ketadi.

Epizod 39

Sport zal. Jamol akaning xonasi. Jamol aka va Yodgor suxbatlashishmoqda.

Jamol aka: Sen chempionsan.

Yodgor: chempionlik hozir menga tatiyotgani yo'q, savolimga javob bermadingiz.

Pul berib turasizmi?

Jamol aka: Yodgor, men tashqi tomondan boy odamga o'xshab ko'rinishim mumkin, ammo bunday emas. To'g'ri, ko'plab ishlar qilaman, lekin barchasi natijasiz bo'lyapti. Bilaman, aldayapdi deb o'ylayapsan...

Yodgor: (gapini bo'lib) tushinarli...

Yodgor keta boshlaydi.

Jamol aka: hafa bo'lma, bitta yordam qilishim mumkin. (Yodgor to'xtaydi) hoxlasang, bugun jang bor. O'sha erda omadingni sinab ko'rish uchun yordam beraman.

Yodgor: raxmat, (kesatib) juda saxiy insonsiz, lekin kerakmas.

Yodgor chihib ketadi.

Epizod 40

Shahar chetrog'ida joylashgan hashamatli uylardan biri. Uy ichi. Xona hashamdor hilib bezatilgan. Xona chetida odmi kiyingan ellik yoshlarladagi kishi, unga qarama-qarshi tomonda esa egniga uzun ko'ylak kiygan, ayol turibdi. Bular Mohinaning ota-onasi. Mohina esa eshik yonida boshini egib turibdi. Ular bahslashmoqda.

Ota: hech hachon, o'sha tashlandiq bolaga ergashib aqlingni yeb qo'yibsan.

Onasi: dadang bilan akang pulni qanchalik qiynalib topishini bilasan-ku, odobsizlikniyam chegarasi bor.

Mohina: dadajon, men yomon ish qilayotganim yo'q-ku.

Ota: (biroz asabiylashib) sen aynan yomon ish qilib yuribsan, o'sha bolaning ortidan ergashib yurishing yaxshi ishmi?

Mohina umid bilan dadasiga qaraydi. Dada yo'q degandek yuzini buradi. Mohina chiqib ketadi.

Ona: akasiga telefon qiling, bu o'zboshimchani topib kelsin.

O'ygan tolga ota raqam teradi.

Epizod 41

Tun. Zafarning oshxonasi. Oshxona yoniga mototsikl kelib to'xtaydi. Mohina mototsikldan tushib oshxonaga kirib ketadi. Zafarni yoniga keladi, Mohina unga nimalarnidir tushintira boshlaydi.

Oshxona tashharisi. Zafar va Mohina shoshib oshxonadan chiqadilar.

Mohina: unga ko'p marta telefon qildim, ko'tarmayapti. Dilshod kasalxonaga kelmadi dedi.

Zafar: (bir dasta pulni Mohinaga berib) manabularni olib dori olib boring. Men mototsiklingizda uni topib o'taman, havotirlanmang, qaerdaligini bilgandekman. Zafar shoshib mototsiklni o't oldiradi. Mototsiklga o'tirib o'ziga o'zi "oshna men borgunimcha o'zingni extiyot qil" deydi va ketadi. Mohina yo'ldan taksi to'xtadi.

Epizod 42

Tun. Ko'cha janggi o'tkaziladigan joy.

Boshlovchi: sizlarni ko'p kuttirmaysiz, dastlab o'ta qiziqarli jangga guvoh bo'lasizlar. Eng kuchlilarni taklif qilamiz.

Ringga avval keng elkali, mushaklari bahuvvat, o'ttiz yoshlardagi kishi egniga xuddi boksyorlarnikidek xalat tashlab chihib keladi. Keyin Yodgor chiqadi. Yodgor raqibiga nisbatan bo'yi pastligi, holaversa jismoniy holati ham undan kuchli emasligi yaqqol ko'rinadi. Jang boshlanadi.

Shaharning boshqa ko'chasi. Katta tezlik bilan Zafar mototsiklni minib ketmoqda. Tashlandih zavod. Yodgor rahibiga xujumlar qilyapti, tajribali raqib uning zarbalariga munosib javob qaytaryapdi.

Tashlandih zavodga olib keluvchi yo'l. Zafar borgan sari tezlikni oshiryapti.

Tashlandih zavod. Jang avjiga chiqqan. Yodgor zarba bermoqchi bo'ladi. Rahib buni payqab o'zini tuzoqqa tushiradi. Chap berib bor kuchi bilan Yodgorning boshiga zarba beradi. Chempionatda sezilarli darajada kuchsizlanib holgan Yodgor yerga qulaydi. O'rnidan turishga harakat qiladi, lekin o'zini o'nglolmaydi.

Boshlovchi g'olibni e'lon qiladi. Zavodga Zafar shoshib kirib keladi va ringda o'tirgan Yodgorga ko'zi tushadi. Shoshib ring yoniga kelib chiqadi, Yodgorni turg'azadi. Elkasidan suyab boshlovchiga qarab "hozir men chihaman" deydi va Yodgorni pastga olib tushadi. Chetga borib stolga o'tqizadi. Zafar shoshib ustidagi kiyimlarini echadi.

Yodgor: (uni harakatlarini kuzatib) nima qilyapsan?

Zafar: sen u yerda chempion bo'lsang, men bu yerda chempionman. Hammasidan habarim bor oshna, mana ko'rasan sen uddalaysan.

Yodgor: (zo'rg'a) biz uddalaymiz.

Zafar: (ruxlanib) sen bilan jangdan keyin bu ishni tashlagandim, sen uchun oxirgi marta chiqaman.

Ikkisi mushtini urishtiradi. Zafar tezlik bilan odamlar orasidan o'tib ringga chiqadi. qoshlari yorilgan, ko'zlari ko'kargan Yodgor unga qarab turadi. Jang boshlanadi. Shiddatli jang ketadi. Kutilmaganda raqib Zafar boshiga kuchli zarba beradi. Zafar yerga qulaydi. Yodgor Zafarni ahvolini ko'rib o'rnidan turadi. Zafar yotgan holda boshini burib Yodgor tomonga qaraydi. Yodgor xavotirlanib unga qarab turgandi. Kadr ortidan Zafarning tilidan so'zlar ketadi.

Kadr ortidan: qo'rhama oshna, buncha havotirlanyapsan, hozir turaman, turaman, chunki bu yerdan tezroq ketishimiz kerak.

Zafar o'zini o'nglab o'rnidan turadi. Jang boshlanadi. Zafar endi ringga chiqqandek raqbini tinmay savalay boshlaydi. Sakrab turib boshiga tepadi. Raqib

yerga qulaydi. Yana tomoshabinlar hayqirig'i oshadi. Zafar ringdan tushib Yodgorni yoniga keladi.

Zafar: (Yodgorni turishiga yordamlashib) tezroq bu erdan ketishimiz kerak.

Buning ikkita sababi bor, birinchisini hozir bilib olasan, ikkinchisi onangni yoniga tezroq borish uchun.

Epizod 43

Tashlandiq zavod binosini oldi. Zafar bilan Yodgor chiqishadi. Yodgor biroz oqsohlanib yuribdi. Zafar yurishdan to'xtaydi va ko'rsatgich barmog'i bilan jim degandek ishora qiladi. Birozdan so'ng zavodga kiraverishda bir-necha melitsiya xodimlari paydo bo'lishadi. Ular bir-birlariga ko'rsatmalar berishgandan so'ng ichkariga kirib ketadilar.

Zafar: birinchi sababni endi anglagandirsan.

Yodgor: ularni sen chahirdingmi.

Zafar: bu muhim emas, ketdik.

Zafar atrofga alanlab mototsilni o't oldiradi. Yodgor orhaga o'rindiqqa o'tiradi. Mototsikl joyidan qo'zhaladi. Tashlandih zavod ichidan odamlarning hiy-chuvi eshitiladi.

Epizod 44

Kasalxona. Zafar va Yodgor uzun zal bo'ylab kelishmoqda. Yodgor bilan Zafar jarroxlik xonasiga tomonga qarashadi. Dilshod stullarning birida boshi egik holda o'tiribdi. Mohina oyna oldida turibdi. Ikkisi ham qarashadi. Ularning ko'zlari qizargan. Zafar bunga ahamiyat bermaydi, ammo Yodgor bir narsa sezgandek ularga qarab turadi. Asta yurib ularni yoniga keladi. Dilshod bilan Yodgorning ko'zlari to'qnashadi. Dilshodning ko'zlari yosh joydirayotgandi.

Yodgor: yo'q, doktor qani? (atrofga alanglab) doktor

Dilshod ko'zlari to'kilayotgan yosh ko'zlari yumalaydi. U boshini egadi. Mohina bo'lsa sekingina yig'laydi.

Yodgor: (baqirib) doktor, qanisizlar, tezroq operatsiyani boshlanglar. Keyin onajonimni uyga olib ketaman, (ho'lidagi ko'zmunchoqqa qarab) axir, kirib chempion bo'lganimni aytsanglar bas, o'rnilaridan tuzalib turib ketadilar.

Yodgor nima bo'lganini Dilshod va Mohinaning ko'zlari qarab tushingandi. U gapirar ekan ko'zlari yoshlanib boraveradi.

Yoshlar: men (yig'lab) chempion bo'ldim oyijon. Shu kunni qanchalik kutgandim, medalimni ko'rib quvonishingizni ko'rgim kelgandi.

Uning yonida turgan Zafarning ko'zlariga yosh to'ladi.

Zafar: hozir ham chempionligini ko'rib xursand bo'lyaptilar, oshna.

Zafar uni quchohlaydi. Dilshod kelib ularni quchohlaydi. Mohina Yodgorni qo'llaridan ushlaydi. Barchalarining ko'zlari yosh yumalab yuzlariga tushadi.

Epizod 45

Ekranda yozuv. "Oradan kunlar o'tdi".

Shuxrat akaning sport zali. Yodgor hoxlamaygina qop urmohda. U bir-ikki marta qopga asta-asta zarba beradi. Kelib ring orha hilib o'tiradi. Oradan birozgina vaht o'tadi. Zal eshigi oldi-da odamlarning ovozi eshitiladi. Eshik yochilib muxbirlar ustiga TV yozilgan mikrafonni ko'tarib yigit-hizlar, egnilariga maxsus kiyim kiygan operatorlar, fotomuxbirlar, diktafon ko'targan radio xodimlari bostirib kirishadi. Yodgor ularga qaramay jim o'tiraveradi.

Muxbir qizlardan biri: nihoyat chempionni tutdik, (operatoriga) kamerani hozirlang.

Yodgor tomonga qarab barcha kameralar yoqiladi, diktafonlar ko'tariladi, fotogriflar rasmga ola boshlashadi.

Muxbir qizlardan biri: (ekranga harab) bugun biz yangi kashf etilgan chempion Yodgor Zufarov oldidamiz, ularni har doimgidek mashq maydonida topdik.

Muxbir yigit: chempion, aynan shu sport maskanida jang olib borgan.

Boshha muxbir qiz: Bugun Yodgor Zufarov kelajakda qanday maqsadlarni ko'zlayotganidan xabardor bo'lasiz.

Yodgorga savol berisha boshlaydilar. Yodgor ortiga o'girilmaydi.

Radio muxbiri: Yodgor Zufarov, avvalo chempionlik xissiyoti qanday kechayotgani haqida gapirsangiz.

Muxbir qizlardan biri: Chempion bo'lgan odam nimalarni xis qilarkan.

Muxbirlarning savoli javobsiz holadi. Barchalari Yodgorga qarashadi. Oraga sukut cho'madi. Yodgor asta o'rnidan turadi. Operatorlar kameralarini unga qaratishadi. Yodgor sekin ortiga o'giriladi. Yig'ilganlarning barchasi hayron bo'lib qolishadi. Chunki Yodgor yig'layotgandi. Ko'zlari to'kilayotgan yosh tinimsiz yuzlariga yumalardi. Barchalari ularga qarab turishar ekan, bunday reportajni mavridi emasligini anglashadi.

Muxbir yigitlardan biri: (operatoriga) kamerani tushiring.

Shu payt shoshib Dilshod kiradi.

Dilshod: (bo'layotgan jarayonni faxmlab) bu erda nimalar bo'lyapti. Sizlarga kim ruxsat berdi. Tezda bu yerdan chiqinglar.

Epizod 46

Hovli. Uy biroz tartibsiz holda. Zafar kirib keladi. Yodgorni qidiradi. Ichkari xonalarni biridan Yodgor chiqadi. Uning soch va soqoli o'sgan.. Zafar jilmayib uni yoniga keladi.

Zafar: halaysan, shu erdan o'tib ketayotgandim, kirib ketay dedim.

Yodgor: choy icharsan.

Zafar: choy bo'lsa mayliga.

Yodgor choyni qaytarib piyolaga kuyadi va Zafarga uzatadi. Keyin o'ziga kuyadi.

Ular choy ichadilar, Zafar zimdan do'stini kuzatadi.

Zafar: yaxshimisan?

Yodgor: yeyapman, ichyapman, nafas olyapman, uxlayapman. Agar shu hayot bo'lsa, demak, men yashayapman.

Zafar: anchadan beri zalga ham bormay qo'yibsan.

Yodgor: keragi yo'q.

Zafar: o'zingni ancha oldirib qo'yibsan. Balki sen bilmassan, men yetimxonada katta bo'lganman. Nikohsiz tug'ilganim uchun ota-onam meni o'sha erga tashlab ketishgan.

Yodgor: ularni izlamadingmi?

Zafar: yo'h, nima uchun izlashim kerak. Sababi ayon bo'lsa, izlab nimaga ham erishardim. Ularsiz katta bo'ldim, demak ularsiz yashay olaman. Kichkinaligimda yetimxona tarbiyachilariga "oyim bilan dadam qachon kelishadi" deb tinmay so'rarkanman. Meni har kuni beradigan bu savolimga javob topisha olmay, "bugun kelgandi, uxlab holganding, qaytib ketdilar" deyishardi. Kunlardan bir kun kunduzi ham, tunda ham umuman uxlamasdan ularni kutdim. (biroz ko'zlari yoshlanib) kelmadilar. Yosh bo'lsam ham xis qildimki ular kelmaydilar.

Zafar ko'zlari yoshlangandi. U jilmayishga harakat qiladi.

Yodgor: seni tushinib turibman.

Zafar: men esa seni, bunchalik umidsizlanish yaramaydi. Biror narsa bilan ovinishing kerak. Masalan boks bilan, chempionsan, jaxon chempionatiga yo'llanmang bor. O'zing aytarding-ku, men xalqaro musobaqalarda qatnashishni istayman deb.

Yodgor: (do'stini hafa qilmaslik niyatida) xo'p

Yodgor choy kuyadi. Ular yana bir piyoladan choy ichishadi. Ikki do'st suxbatlashishda davom etadi.

Epizod 47

Tun. Yodgorning xonasi. Kadr ko'zmunchoh bilan ochiladi. Soch-soholi o'sgan Yodgor bilagidagi ko'zmunchoqqa qarab o'tiribdi. O'rnidan turib krovati ostidagichamadonchani oladi. Krovatiga qo'yib ichini ochadi. Ichida turli hil rasmlar, gazetalar bor. Yodgor bolaligida tushgan rasmlarni olib tomosha qiladi. Ular orasidan onasi bilan birga tushganini tanlab oladi. Rasmga tomosha hilib bo'lgach chamadonga ho'yadi va gazeta bo'lagini oladi. Gazeta varog'i ko'rinishidan ancha yillar oldin chiqqan. Yodgor sarg'ayib ketgan gazeta vorog'iga qarab turarkan nimalarnimdir o'ylaydi. Gazeta varog'i ko'rsatiladi. Unda bir

kishining xira surati turibdi, ostiga katta xarflar bilan yangi chempion deb yozilgan.

Epizod 48

Shuxrat akaning sport zali. Doimgidek har xil kiyimdagi sportchilar mashhhilishmohda. Soqoli olingan, sochi tekislangan Yodgor sumka ko'tarib zalga kirib keladi. Ringda o'zicha mashq qilayotgan Dilshod do'stini ko'rib sakrab pastga tushadi.

Dilshod: (jilmayib) kutilmagan mehmon-ku.

Ikkala do'st huchohlashib ko'rishadilar.

Yodgor: ustoz qanilar?

Dilshod: ustoz (to'xtab) ha, ularmi, tomdalar.

Yodgor sumkasini chetga qo'yib tez chiqib ketadi.

Sport zal binosining tomi. Oddiy kiyingan Shuxrat aka tesha bilan tomning chakka o'tadigan joylariga klyonka qoqyapti. Yodgor chiqadi. U bir-muddat ustozini kuzatib turadi va yoniga keladi.

Yodgor: assalomalaykum ustoz!

Shuxrat aka: salom. (ishida davom etadi)

Yodgor: (ustoziga yaqinlashib) men qaytib keldim, sizni qo'l ostingiz mashhqilishni ho'xlayman.

Shuxrat aka: men esa ho'xlamayman, axir sen professionalсан, havaskorga aylanib qolishing mumkin.

Shuxrat aka indamay ishi davom etadi. Yodgor ustozini yoniga o'tiradi.

Yodgor: shogird ustozidan xafa bo'lishi mumkin, lekin ustoz shogirdidan hech hachon xafa bo'lmaydi. (Shuxrat aka indamaydi)

Yodgor: sizni o'tmish deb yurardim, aslida kelajak ekansiz.

Yodgor yonidan tunda chamadoni ichidan olgan gazeta varog'ini oladi.

Yodgor: qachongacha olamdan o'zingizni yashirasiz, (Shuxrat aka dast burilib qaraydi) nima uchun o'zingizni chetga olasiz, haqiqiy professional aslida o'zingiz, (gazeta varohini ko'rsatib) Bu siz, afsonaviy chempion.

Shuxrat aka hayolidan nimalarnidir o'tkazadi. Yodgorga sir boy bermaslik uchun yuzini o'girib ishini davom ettira boshlaydi.

Yodgor: siz meni xalqaro maydonga olib chiqishingizni, siz kabi chempion bo'lishni istayman va bunga erishaman.

Shuxrat aka: o'sha kuni qattiq jang bo'ldi. Raqibim juda kuchli edi. Qancha zarba bermay ta'sir qilmadi. O'ng tirsagim sindi, yashirdim. Bor kuchimni to'plab siniqqo'l bilan zarbalar berdim. Men yutdim, lekin boks bilan butun umr xayrlashdim. Chunki, singan qo'lim joyiga yaxshi o'rnashmadi.

Yodgor: bu chinakam iroda.

Yodgor gazetani ustoziga berib pastga tushadi. Tomda o'tirgan Shuxrat aka gazetadagi o'zining xira tasviriga qarab qoladi.

Epizod 49

Mazkur epizod kichik voqealari musiha hamoxangligida bo'lib o'tadi.

Erta tong. Atrofda xira qorohlik bor. Shahar ko'chalaridan biri. Sport kiyimida yo'l bo'ylab yugurib kelayotgan Yodgor avvaliga oyoqlari ko'rsatiladi. So'ng yuzlari, unga parallel ravishda, yo'lda Mohina mototsikl minib ketyapdi. Ular birlariga qaraydi. Yodgor jilmayadi va tezlikni oshiradi. Mohina kulimsiraydi.

Tun. Yodgor o'z xonasida anjimoniya qilyapdi. U boshi ko'tarib devorga yonmayon qilib osilgan ota-onasining suratlariga qaraydi.

Sport zal. Yodgor bitta, ko'p joyi yamalgan qopni urmoqda. Dilshod unga o'zicha ko'rsatmalar beryapdi. Yodgorni to'xtatib zarbani qanday yo'llash kerakligini o'rgatadi. Zalga yangi, zamonaviy qop ko'tarib Zafar kirib keladi. Ular quchoqlashib ko'rishadilar.

Sport zaldagi ring. Zafar bilan Yodgor boks tushishyapdi. Shuxrat aka ularga ko'rsatmalar beryapti.

Zafarning oshxonasi. Barcha do'stlar ovqatlanishmohda. Dilshod tinmasdan gapiryapti. Mohina choy kuyib ularga uzatadi.

Epizod 50

Sport zal. Shuxrat akaning xonasi. Ustoz va shogird o'tirishibdi. Shuxrat aka stol ustiga eski boks qo'lqopini tashlaydi. Yodgor ajablanib unga qaraydi.

Shuxrat aka: bu oddiy qo'lqop emas, maxsus tikilgan. O'sha kuni shu qo'lqopini birinchi marta kiygandim. Bu endi senga.

Yodgor: (qo'lqopni olib) raxmat ustoz.

Shuxrat aka: yaqinda jaxon chempionati, raqiblaring juda kuchli. Ayniqsa kubalik qora tanli Erik degani bor. U o'sha kungi raqibimning shogirdi, finalga etib kelishga intiladi.

Yodgor: shunday katta turnerni yurtimizda o'tkazilayotganligidan xursandman. Bor kuchim bilan harakat qilaman.

Epizod 51

Yodgorning xonasi. U sumkalariga narsalarini joylab chetga qo'yadi. Devorda osilgan ota-onasi qarshisiga kelib erga cho'kkaalaydi.

Yodgor: (qo'llarini duoga ochib) meni duo qilinglar, maqsadim chempion bo'lish. Oyi, dada bilaman sizlar ham o'sha yerda bo'lasizlar. Duo qiling oyi uzoq yashayin, duo qiling dada sizga o'xshayin.

Yodgor chiqib ketadi.

Epizod 52

Chempionat. Shaharda joylashgan eng katta boks kompleksi. Tomoshabinlar, yelkalariga sumka osgan sportchilar, murabbiylar kompleksga kirib ketishyapti. Eshik oldida egnilariga zar chupon kiygan bir-qancha sozandalar milliy kuylarimizdan chalishmohda.

Kompleks ichi. Tumonat odam yig'ilgan, barcha o'rindiqlarni tomoshabinlar egallashgan.. Turli millatga mansub bo'lgan sportchilar, murabbiylar yurishibdi. Federatsiya xodimlarining bir-nechtasi ochilish marosimi uchun tayyorgalik ko'rishmohda. Turli davlatlardan tashrif buyurgan, egnilariga mahsus kiyim kiygan referelar qator bo'lib saf tortib turishibdi. Eshik oldida Dilshod ko'rinadi, keyin

Mohina, Zafar va Yodgor birin-ketin kirib ketishadi. Kompleks uzra tomoshabinlar hayqirig'i yangrayapdi.

Dilshod: vahimanning uyasi-ku.

Mohina: (Yodgorga) ro'yxatdan o'tishing kerak.

Yodgor: xo'p, ustoz kelmadilarmi?

Zafar: keladilar, mana ko'rasan o'zlari seni ringga olib chiqadi.

Dilshod: (ruhlanib) ha, juda ajoyib, barchasiga ko'rsatib qo'yamiz.

Barchalari ichkariga kirib ketishadi.

Epizod 53

Boks kompleksi. Barcha ringlarda turli hil millat vakillari jang olib borishyapti. O'rtadagi ringda Yodgor yaponiyalik rahibi bilan jang qilmohda. Murosasiz olishuv boryapdi. Raqib Yodgorga kuchli zarbalar beryapdi. Yodgor ham chap berib javob zarbasini yo'llayapti. Yodgor rahibiga zarbalar seriyani namoyoni hiladi. Refere ularni ajaratib Yodgorni chetga borishini aytadi. Yodgor ring arqonlari yoniga keladi. Bir-muddat turgandan so'ng referi jangga chaqiradi. Yodgor jangga kirishadi, rahibini esa boshqa edi. Boshha ringlarda bo'layotgan janglar ko'rsatiladi. Yodgorni ringi ko'rsatiladi. Yodgor yana boshha rahibi bilan jang qilmoqda.

Komleksning umumiy ko'rinishi, zavqlanayotgan tomoshabinlarning hayqirayotgani, turli ringlardagi janglar, referelar tomonidan g'olib bokschilarning qo'lini ko'tarishi, hakamlarning sinchiklab jangni kuzatayotganliklari, jang paytidagi qisqa tanaffusda murabbiylar o'z shogirdlariga ko'rsatmalar berayotgani, Shuxrat aka Yodgorga ko'rsatma berayotgani, refere Yodgorni qo'lini ko'tarib g'olibligini e'lon qilishi, Zafar va Dilshodlarning qo'llarini baland ko'taribxursand bo'layotgani, Erikning ringdagi harakatlari, turli referelar uni qo'lini ko'tarib g'olibligini e'lon qilayotgani qisqa lavhalarda ko'rsatiladi.

Epizod 54

Kompleks ichida joylashgan xonalardan biri. Xonada Yodgor, do'stlari va Shuxrat aka bor. Shuxrat aka Yodgorni final jangiga tayyorlayapdi. Stulda o'tirib ustozini tinglayotgan Yodgor o'zini yomon xis qilyapti, lekin buni Shuxrat akaga sezdirmaslikka harakat qilyapdi.

Shuxrat aka: shoshilma, masofani saqla, uzoqroqdan jang olib bor. Jang taqdirini tez hal qilishga urinma, o'zing pand yeyishing mumkin. Nima bo'lgandayam o'zingni extiyot qil. Sen amaldagi jahon chempioni bilan jang qilasan. Olg'a, o'g'lim. (Zafarga) qo'lqopini kiydiringlar.

Shuxrat aka chihib ketadi. Yodgor qarab turgan Mohina nimanidir sezadi. Yoniga kelib peshonasini ushlaydi.

Mohina: (cho'chib) axir uni issig'i balandku.

Dilshod bilan Zafar xotirlanib Yodgorni yoniga keladi. Qo'llaridan ushlaydi va birbirlariga harashadi.

Yodgor: hech hisi yo'h, cho'chimanglar, o'tib ketadi. Men bu kunni Qanchalik kutganimni bilasizlar, iltimos ustozga sezdirmaylik. (Zafarga) qo'lqopni kiydir. Yodgor sumkasidan ko'zmunchoqni oladi.

Yodgor: (Zafarga) ko'zmunchoqni bilagimga taqib, qo'lqop orasiga yashirib qo'yolasanmi?

Zafar: (ko'zmunchoqni olib) ha.

Zafar ko'zmunchoqni Yodgorning o'ng bilagiga taqib qo'lqolarni kiygazadi.

Shuxrat aka kirib keladi.

Shuxrat aka: vaht bo'ldi, ketdik.

Yodgor o'rnidan turib Shuxrat aka yonida o'zini tetik tutish uchun harakat qiladi.

Yodgor duo qiladi. Ular xonadan chihib ketishadi.

Epizod 55

Boks kompleksi. Barcha markaziy jangni kuzatish uchun kelgan. Yutqazgan bokschilar va ularning murabbiylari o'zlari uchun ajratilgan joyda o'tirishib final musobaqasi bo'ladigan ringga qarab o'tirishibdi. Tomoshabinlar jang boshlanishini

sabrsizlik bilan kutmoqdalar. Federatsiya xodimlaridan biri ringga chihib sportchilarni tanishtirib ringga taklif qiladi.

Xodim: final jangi, ringga hamyurtimiz Yodgor Zufarov, hamda Kubalik tajribali bokschi, ikki karra jaxon chempioni Erik Royni taklif qilamiz. Har ikkala sportchiga omad tilaymiz.

Tomoshabinlar qarsak chalishadi. Yig'ilganlarning barchasi sergak tortishadi Federatsiya xodimi ringdan tushadi. Erikning murabbiyi bilan Shuxrat akaning ko'zlari to'qnashadi. Shuxrat aka ko'zlarini olib qochadi. Yodgor ringga chiqadi. Raqibi bilan qo'l berib ko'rishadi. Shunda uning jussasi rahibiga nisbatan kichik ekanligi yaqqol ko'rinadi.

Shuxrat aka: hammasi joyida bo'ladi.

Zafar: bo'shashma, olg'a.

Refere sportchilarni ringga taklif qiladi. Jangga bong uriladi. Jang boshlanadi. Erik dastlabki daqiqalardan oq tashabbusni qo'lga oladi. U Yodgorga zarbalar beradi.

Yodgor muvozanatni yo'qotib dovdirab qoladi. Shuxrat aka yuzida qayg'u pay bo'ladi. Ring ostidan "himoyalan, himoya" deb baqiradi. Raund tugaydi.

Bokschilar o'z burchaklariga keladi. Shuxrat aka sakrab ringga chiqadi.

Refere sportchilarni ringga taklif qiladi. Raund boshlanadi. Yodgor masofani saqlagan holda jang olib bora boshlaydi. Shunga haramay Erik bir-ikki marta himoyani yorib kirib zarbalar beradi.

Zafar: mana ko'rasiz, u uddalaydi.

Tomoshabinlar hamyurtlarini olqishlaydilar. Erik kuchli zarb bilan Yodgorni yerga qulatadi. Refere uni burchakka borishini aytib sanay boshlaydi. Zalga sukunat cho'madi. Zafar ringda yotgan Yodgorning yuzlariga qarab turarkan o'ziga o'zi "tur o'rningdan do'stim, axir qo'lingga ko'zmunchoqni nega taqdim, (bahirib) tur do'stim, tur do'stim" deydi. Yodgor asta o'rnidan turadi. Refere uning qo'llarini ushlab hammasini joyidaligini anglagach jangni boshlashga ruxsat beradi. Raund tugaydi. Bokschilar burchaklarini egallashadi.

Shuxrat aka:cho'chimasdan olg'a boraver, nima bo'lsa bo'ldi. U ham ustoziga o'xsharkan, tirsagingni extiyot hil.

Jang boshlanadi. Yodgor o'zini o'nglab raqibiga zardalar beradi. Erik Yodgorni tirsagiga zarba beradi. Olovda toblangan tirsaklar zarbani inkor etishadi. Erik hayron bo'ladi. Yodgor endi ringga chiqqandek turli usullarda xujumlar hiladi. Natijada Erik zarbalarni o'tkazib yuboradi. Natijada u dovdirab holadi. Refere Yodgorni burchakka jo'natadi. Erikni tekshirib hammasini joyidaligini ishonch hosil qilgach jangga ruxsat beradi. Jang boshlanadi. Yodgor o'ng qo'li bilan rabining boshiga kuchli zarba beradi, Erik yerga qulaydi. Refere sanaydi, u turishga urinadi, lekin tura olmaydi. Zafar bilan Dilshod bir-birlarini quchadilar. Federatsiya xodimlari qo'l berib bir-birlarini tabriklashadi. Shuxrat aka ringga sakrab chiqadi. Yodgorniquchadi, uning ortidan do'stlari ham chiqadi. Dilshod chempionni ko'taradi. holsizlanib holgan Yodgor qo'llarini ko'taradi. Erikni murabbiylari uni turg'azishib o'z burchaklariga olib keladi. Zafar bayrog'imizni ko'tarib ringda aylanadi. Yodgor ringdan tushib Mohinani quchib qo'yadi. Refere chempionni qo'llarini ko'targanda zal yana larzaga keladi. Boshha millatga mansub bokschilar ham Yodgorni tabriklashadi. Kadr ringni yuqoridan ko'rsatadi.

Epizod 56

Aeroport. Sportchilar musobaqaga ketish uchun yaqinlari bilan xayrlashmoqdalar. Chetda Yodgor do'stlari bilan turibdi. Barcha sportchining ota-onasi farzandlari bilan suxbatlashib turishibdi. Yodgor ularga qaraydi. Dilshod do'stini holatini his qilib so'z boshlaydi.

Dilshod: bilsangiz Yodgor jangda ko'proq men o'rgatgan usullarni qo'llaydi.

Zafar: bu shubhasiz.

Dilshod: vahti kelib katta murabbiy bo'lib ketsam kerak!

Barchalari kulishadi.

Mohina:endi boshha chempionlarni ham shunday tarbiyalagin.

Dilshod: (quvnohlik bilan) albatta, endi Zafarning gali.

Yodgor: (kulimsirab) o'zingni galing qachon keladi.

Dilshod: bilsang men chempion bo'laverib zerikib ketganman.

Barchalari yana kulishadi. Sumka ko'tarib Shuxrat aka keladi.

Shuxrat aka: kechga qolmaylik.

Shuxrat aka bilan Yodgor xayrlashadilar.

Dilshod: agar chempion bo'lib qaytmasang uyingga kirgizmayman.

Yodgor kulimsirab ichkariga bino ichiga kirib ketadi.

Epizod 57

Aeroport ichi. Yodgor tekshirishlardan o'tib kutish joyida, uning yonida Shuxrat aka o'tiribdi. Yodgorniko'zi bayrog'imizga tushadi. Unga bir-muddat qarab qoladi. Hayolidan so'zlar o'tadi.

So'z: men yolg'iz emasman, do'stlarim va ustozim doim yonimda, qolaversa mendan ko'ra yutqlarimdan quvonadigan kuchli va irodali xalqimiz bor.

Yengilmayman, ularning oldida yuzim yorug' bo'lishiga intilaman. Duo qiling oyi do'stlarim uchun, duo qiling dada o'g'lingizni burchi uchun.

Kadr bayrog'imizni ko'rsatib turadi.

Epizod 58

Farhona viloyati. Qishloq ko'chalardan biri. Yo'ldan bir mashina qishloh tomon kirib boryapdi, muyulishdan burilib Xadicha opa va Odil akaning uylari yonida to'xtaydi. Mashinadan Yodgor tushadi. Qo'shni uy darvozasi oldida to'planib turgan ayollar unga havas bilan qarashadi. Mashindan Zafar va Dilshod ham tushadilar. Yodgor uydan ko'zini uzmaydi.

Dilshod: (Yodgorga) uying zo'r-ku.

Yodgor: ha, men shu qishlohda tug'ilganman, bu meni uyim.

Qo'shni ayollardan biri: (sheriklariga) Xadichaxon bilan Odil akaning chempion o'g'illari kelibdi-da.

Uch do'st darvozani ochib uyga kirib ketadilar.

TAMOM.

Foydalanilgan adbiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. – Toshkent: O'zbekiston, 2009.
2. Karimov I.A. O'zbekiston – kelajagibuyukdavlat. –Toshkent: O'zbekiston, 1992.
3. Karimov I.A. Yuksakma'naviyat – engilmaskuch. –Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
4. Karimov I. A. Iroda va imon – e'tiqodimiz sinovi. – T.: O'zbekiston, 1999.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori.
“O'zbekteatr” ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida:-1998.-22 may //Istiqlol va Milliy teatr.To'plam. T.: Yangi asr avlodi, 2002.
6. Aristotel. Poetika (poeziya san'atiga haqida). - – T.: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'atnashriyoti, 1980.
7. Lev Tolstoy. Iqrornoma. –Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
8. Kun N.A. QadimgiYunonistonafsonavarivoyatlari. 1-kitob. –Toshkent: Davr press, 2013.
9. NosiriddinRabg'uziy. QissasiRabg'uziy. 1-kitob. –Toshkent: Yozuvchi, 1990.
10. Ulug'bekHamdam. Isyonvaitoat. –Toshkent: Yangiasravlodi, 2003.
11. ChingizAytmatov. Qiyomat. –Toshkent: O'zbekiston, 2011.
12. Imomov B. Dramaturgik mahorat sirlari. - T.: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1991.

Internet saytlar:

1. ibt.org.ru (ibtrussia.org)
2. lahza.uz
3. n.ziyouz.com